

N.M. Quchqorova, X.T. Siddikov

**TARBIYA DIAGNOSTIKASI
VA KORREKSIYASI**



88.8 yoz

8-85

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Quchqorova Nargiza Mamajonovna
Siddikov Xasan Taxirovich

TARBIYA DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI

Darslik

Bilim sohasi:	100000 - Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 - Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	60110100- Pedagogika va psixologiya (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi)



“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2022

UO‘K: 37.015.3(07)

KBK: 88.8ya7

Q 85

ISBN 978-9943-8209-3-7

Quchqorova, Nargiza Mamajonovna, Siddikov, Xasan Taxirovich
Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi [Matn] : darslik / N.M. Quchqorova,
X.T. Siddikov. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 100 b.

Mazkur darslik 60110100 – Pedagogika va psixologiya (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun “Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi” fani mavzularini o‘rganishlari uchun mo‘ljallangan.

Darslikda shaxsda ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishda tarbiyaviy diagnostika va korreksiya qilishning nazariy asoslari, ijtimoiy faoliyat jarayonida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarida tarbiyaviy korreksiyalash metodlarini amaliy jihatdan o‘rganish, shaxs shakllanishida va rivojlanishida tarbiyaviy jarayon sub‘ektning faol ta‘sir etish yo‘llari, o‘qituvchilarning oila bilan olib boradigan tarbiyaviy ta‘sir etishiga oid nazariy va amaliy ma‘lumotlar yoritilgan.

60110100-Pedagogika va psixologiya (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) ta‘lim yo‘nalishi talabalari va fan o‘qituvchilari ta‘lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish uchun darslikdagi ma‘lumotlardan ijodiy foydalanishlarini tavsiya qilamiz.

Mualliflar:

Quchqorova Nargiza Mamajonovna – Urganch davlat universiteti, “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Siddikov Xasan Taxirovich – Urganch davlat universiteti, “Maktabgacha ta‘lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

M.R.Kadirova – Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

B.Nurullayeva – UrDU, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berilgan.

© Quchqorova N.M., Siddikov X.T.
© “Bookmany print” nashriyoti, 2022.

KIRISH

Mamlakatimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli, ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tarbiyachi-o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodga ta'lim berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq. Yangicha ijtimoiy sharoitda ta'lim-tarbiyada ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma-xil tarbiyaviy faoliyatlarini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish tarbiyachi-o'qituvchilar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Chunki o'qituvchining vazifasi bolaga bir umrga yetadigan bilim berish emas, balki uni bir umr bilim olishga o'rgatishdir.

Uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichlaridanoq har bir faoliyatda tarbiya diagnostikasi bilan shug'ullanishlari lozimligi bugungi kun talablaridan biridir. Har bir faoliyat zahirida ham amalga oshirilgan ishlarning ma'lum maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalari bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "ta'lim olishga munosib, yuksak aql-zakovat va yetakchilik qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlarni aniqlash"¹ ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat istiqbolini ta'minlashiga ishonch bildiradi. Bu esa o'z navbatida respublika uzluksiz ta'lim tizimi oldida "yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat"² muhim ijtimoiy-pedagogik vazifani qo'yadi.

Ushbu darslikni taqdim eta turib, bu manba ma'lum darajada o'quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Mualliflar kitobxonlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni qabul qiladi, keyingi nashrlarda, albatta, ularni inobatga oladi.

Mualliflar

¹ Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – T.: O'zbekiston, 2017. – 227-b.

² Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – T.: O'zbekiston, 2016. – 14-b.

I BOB. “TARBIYA DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI” FANINING NAZARIY ASOSLARI

**1-mavzu: “Tarbiya diagnostikasi va korreksiya” fanining
obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Tarbiyaviy
diagnostika va korreksiya pedagogikaning ilmiy va amaliy
sohasi sifatida.**

Reja:

1. “Tarbiya diagnostika va korreksiya”ning o‘quv fani sifatida shakllanishi hamda rivojlanishi.
2. “Pedagogik diagnostika” tushunchasining mohiyati.
3. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining mazmuni.
4. “Pedagogik diagnostika va korreksiya” o‘quv fanining asosiy tushunchalari.

Tayanch so‘z va iboralar: Uzluksiz ta‘lim, tarbiya diagnostikasi, korreksiya, pedagogik diagnostika, pedagogik korreksiya, anomal bola, taqqoslash, pedagogik tahlil, defektologiya

1. “Tarbiya diagnostika va korreksiya”ning o‘quv fani sifatida shakllanishi hamda rivojlanishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi:bu pedagog va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta‘lim olish, ma‘naviy-ma‘rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”,- degan fikrlari katta ahamiyat kasb etadi.³.

Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar yasash – bo‘sh yoki muvaffaqiyatli o‘rinlarni belgilab olish, faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deyiladi. Pedagogik diagnostika bilim oluvchining o‘zlashtirishi, o‘qishdagi qiyinchiliklarini, uning o‘qishiga ta‘sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy

³ Sh.M.Mirziyoyev “ Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Toshkent 2017, 45-bet.

omillarni o'rganishga yo'naltirilgandir. Diagnostika natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish, psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini olib borish imkonini beradi.

O'zbek oilasi necha yillarkim o'zining tarixan shakllangan qiyofasini yo'qotmadi. Ulug' adibimiz Abdulla Qodiriy qahramonlaridan birining: "Bu xonadondan hech kim norizo bo'lib ketgan emas", deya aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam. Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlari bor. Din-u diyonatli xonadon oqsoqollaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib, savodini chiqarish, ilimli, kasb-hunarli qilish, boshini ikki, uyli-joyli qilish. Mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. Shuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihalar jamoatchiligimiz diqqat-e'tibori markazida o'tmoqda, tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammoga aylanmoqda. bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarasi taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadrini, millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib obro'li o'rin egallash uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Bunday boylikning ahamiyatini anglash uchun chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general - gubernatori M. Skobelev: "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi", deb aytgan gapini eslashning o'zi kifoya qiladi. Shu bois mamlakatimizning

istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridanoq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Har qanday faoliyat zahirida ham amalga oshirilgan ishlarni pirovard maqsadi vazifalari va kutilgan natijalarini sarhisob qilish, amaliy, xulosalar yasash - bo'sh yoki muvaffaqiyatli o'rinlarni belgilab olish faoliyatni keyingi bosqichlarida uni hisobga olish diagnostika deyiladi. Fanning asosiy maqsadi bilim oluvchilarning turli sohalaridan psixologiya va pedagogikaga oid bilimlar berish, ayniqsa shu fanlarning ilmiy tadqiqot metodlarini amalda qo'llashga o'rgatishdir.

Tarbiya diagnostika yordamida ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'ri tahlil etiladi va uning samaradorligi to'g'ri baholanadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika orqali ta'lim ob'ekti, ta'limiy tushunchalar qay darajada o'zlashtirilganligi tahlil etiladi, butun o'quv kursini, o'quv dasturlarini o'zlashtirish darajasi baholanadi. Tarbiya diagnostikasi muhim ahamiyatga ega. U o'quv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi, ta'limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yo'l ochadi, pirovard natijada ta'limning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir qiladi

“Pedagogik diagnostika” tushunchasining mohiyati.

Pedagogik diagnostika tarixiga nazar tashlasak o'tgan asrlarda u faqat o'quvchi bilimini baholash orqali amalga oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864 yilda AQSh olimlari D.Fisher va R.Ressler asos solganlar, 1908 yildan boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orqali o'quvchi bilimini sinash tizimini tadbiiq etgan. Egallangan malakani aniqlashga qaratilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatining ayrim jihatlari:

- a) taqqoslash;
- b) pedagogik tahlil;
- v) avvaldan ayta bilish (prognoz);
- g) interpretatsiya;
- d) pedagogik diagnostika natijalarini o'quvchilarga yetkazib berish;

e) amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o'quvchilarga yetkazish;

j) pedagogik diagnostika metodlarini to'g'ri belgilashdan iborat bo'lgan.

Tajribalar, tahlillari shuni ko'rsatadiki, pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar haqqoniy bo'ladi. Chunki bunda to'rt xil xulosa bir xil natija bilan baholanadi. Bular,

- mazmunning tasdig'i;
- har xil usul bilan olingan natijalarning bir xilligi;
- natijalarga ko'ra amalga oshirilgan tahlillarning isbotlanishi;
- loyihalashning tasdiqlanishi ya'ni loyihalashtirishdagi natijalarning olingan xulosalarga uyg'unligi).

“Diagnostika” (tashxislash) tushunchasi yunon tilidan tarjima qilinganda lug'aviy jihatdan “bilish”, “aniqlash”, nazariy jihatdan esa “aniqlashga qodirlik”, “aniqlashga imkon berish” ma'nolarini anglatadi.⁴

Pedagogik diagnostika atamasi esa ilk bor 1968-yilda nemis olimi Karlxaynts Ingenkamp tomonidan qo'llanilgan.

Pedagogik diagnostika yordamida jamiyatdagi ma'naviy- ma'rifiy jarayon tahlil qilinadi. Tashxislashda nafaqat ta'lim tarbiyaning natijalarini sarhisob qilish, balki ularning o'zgarish dinamikasi ham kuzatiladi va kamchiliklar bartaraf etiladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika har bir rejali o'quv faoliyatining ajralmas bo'lagi sanaladi. O'quvchilar materialni qanday o'zlashtirayotganini hamisha kuzatib borish, tarbiyaviy jarayondagi muammolarning yechimini topishga yordam beradi. Pedagogik diagnostika yordamida o'quv-tarbiya jarayonidagi muammolar bartaraf qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik tashxislash va korreksiyalashning mazmunini o'quvchilarda aqliy, intellektual qobiliyatlarini, ijobiy qarash va e'tiqodlarini, axloqiylik, irodalilik va hissiyotlarini shakllantirishdan iborat.

O'quvchilarning globallashtirish jarayonida ma'naviy tahdidlarni farqlay olishlari, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurash olib borish lozimligini, inson qalbiga yo'l topish, ma'naviy

⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Hidrofiliya – Zebra / 3-tom. Tahrir hay'ati: M.Aminov va b. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 283-b.

kamolot ekanligi, mamlakat ravnaqi yo'lida fidoyilik, jasorat ekanligini anglab yetishi uchun barcha pedagogik metodlardan foydalanish lozim. Pedagogik diagnostika ta'lim jarayoni sifatini loyihalashtirish, unga erishish va qo'llab-quvvatlash hamda uni amalga oshirish yo'llarini o'rganadi, natijalarini tashxislaydi. Bu jarayonda ta'lim sifatini ta'minlash, zamonaviy yondashuvlarining asosiy negizi – turli xil boshqa, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etish ham amalga oshiriladi. Bo'lajak kasbni tanlash uchun o'quvchilarni maktab davridanoq kasb egallashga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, ularning irsiy va kasb tanlashga bo'lgan xohishini o'rganish - zamonaviy pedagogik diagnostika metodlariga murojat etishni talab etadi O'z kasbini sevgan inson ijodkorlikka intiladi, yangilik yaratishga qodir bo'ladi. Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat. Rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Pedagogik korreksiyaning mazmuni

Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos — noto'g'ri) bolalarga jismoniy

yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Bolaga korreksion ta'sir ko'rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funksiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning yoshi, nuqsonlar o'rmini to'ldirishga imkon beruvchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog'liq. Anomal bolalarning ma'lum guruhi faqat Inson huquqlari deklaratsiyasi, bolalar konvensiyasi talablaridan kelib chiqqan holda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor kishilarni kamsitmaslik, haqoratlamaslik uchun masalan, Moskva shahridagi Defektologiya ilmiy-tadqiqot instituti "Korreksion pedagogika ilmiy tadqiqot instituti" deb nomlanmoqda. Defektologiya fani ko'p mamlakatlarda korreksion pedagogika deb yuritilmoqda. Korreksion pedagogikaning predmeti - anomal bolalar, ya'ni jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar (yunoncha anomalos - odatdan tashqari), noraso degan ma'noni bildiruvchi so'zi bilan yuritiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda korreksion pedagogika – alohida yordamga muhtoj jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandır. Korreksion pedagogika so'zi lotincha tuzatish – bartaraf etish, pedagogika – ta'lim-tarbiya, o'rganish degan so'zlardan olingan. Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha odatdan tashqari, noraso degan ma'noni bildiruvchi anomalos so'zidan olingan).

Korreksion pedagogika fanining mavzu bahsi anomal, alohida yordamga muhtoj bolalardir.

Korreksion pedagogikaning vazifasi – anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini o'rganish, shular, asosida **integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta'limni** tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir.

Korreksion pedagogika fanining **maqsadi** – anomal bolalarga integratsiyalashgan-inklyuziv hamda differensial ta'limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish

yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yo'llarini tarbiyachi hamda o'qituvchilarga ko'rsatib berishdan iborat.

Anomaliyalar har xil bo'ladi, ularning ba'zilar batamom bartaraf etiladi, ba'zilar bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, boshqalari esa bilinmaydigan holga keltiriladi, ba'zilar esa kompensatsiyalanadi. Bola nutqida qo'pol kamchiliklar bo'lsa, to'g'ri tashkil etilgan logopedik choralarni o'z vaqtida ko'rish yo'li bilan ularni to'liq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo bo'lgan bo'lsa (masalan, oligofreniya shunday nuqson jumlasiga kiradi), uni to'liq bartaraf etib bo'lmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo'lmaydi, masalan, tug'ma ko'rlik yoki karlik shular jumlasidandir. Bunda ko'rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko'rish analizatoriga yuklash, ya'ni kompensatsiyalash, o'rnini bosish mumkin. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo-ishora, ya'ni taktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Korreksion pedagogika nisbatan yangi fan. U asosan IXI asrning o'rtalarida rivojlana boshladi. 1925 yilda Moskva shahrida Eksperimental defektologiya instituti tashkil etildi. Bu institutni buyuk psixolog professor Vigotskiy L. S. boshqardi.

L.S. Vigotskiy anomal bolalar rivojlanishidagi xususiyatlarni o'rganib, nuqsonning murakkab tuzilishi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. U "Korreksion pedagogikaning asosiy muammolari" kitobida anomal bolalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va ularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib berdi. L.S. Vigotskiy anomal bolada nafaqat "salbiy" balki "ijobiy" tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va potensial qobiliyatni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi. U defektologiya sohasida katta nazariy meros qoldirdi va haqli ravishda defektologiya fanining asoschisi sanaladi.

Atoqli psixolog L.V. Zankov 1935 yildan L.S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishlay boshladi. Bu olimlarning sobiq sovet psixologiyasi va defektologiyaning nazariy jihatdan shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'ldilar. Ular aqliy jihatdan qoloq bolalar psixikasi taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganib, "rivojlanishning to'xtash nazariyasi", "chegara" degeneratsiya nazariyasi", "ma'naviy defektli" kabi g'ayri ilmiy va reaksion nazariyalarni fosh etdilar.

Korreksiya so'zi **tuzatish** ma'nosini bildiradi. Kamol topib borishda ma'lum bir nuqsonlari bo'lgan bolalarning kamol topish qonuniyatlarini hamda ularning xatti-harakatlari va faoliyatidagi o'ziga xos xususiyatlarini anglab olish, ularning kamchiliklarini va qiyinchiliklarni tuzatishning samarali usullarini, yo'llarini topish bilan shug'ullanadigan fan **pedagogik korreksiya** fani hisoblanadi.

Bu fan kamol topishda kamchiligi bor bolalar kamchiligining tabiatini va xususiyatlarini anglab olish, o'z vaqtida bilish, malakali davolash, pedagogik ta'sir ko'rsatish, muayyan ijobiy natijalarga erishish imkoniyatini beradi hamda bu bolalarni kamol topishini ta'minlaydi. Ularni maktabga borganda oladigan bilimlarini o'zlashtirib olishga, so'ngra esa jamiyatimizning foydali a'zolari bo'lib yetishishlarida yordam beradi.

Pedagog-psixolog bolalarning kamol topib borishidagi nuqsonlarni korreksiyalash va o'rmini (kompensatsiyalash) mukarakkab vazifani amalga oshirish uchun u bunday nuqsonli bolalarni pedagogik jihatidan tekshirish qoidalari va usullarini ma'lum darajada bilib olish zarur. Bolani kompleks ravishda o'rganish uning pedagogik tekshirishdan tashqari tibbiyot yo'li bilan tekshirish bolaning kamol topayotganligining qanday borayotganligi, kasallikning paydo bo'lishi tarixi va xarakteri, bolaning jismoniy jihatdan o'sish darajasi, sog'ligining holati, asab sistemasining, ko'zi va qulog'ining xususiyatlari, intellektning emotsional irodaviy sifatleri, psixik faoliyatining xarakteri to'g'risidagi ma'lumotlar, logopedik tekshirishlar, ota-onasi, yaqin qarindoshlarining sog'ligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bola kamol topishida yuqorida ko'rsatilgan ma'lum kamchiliklari bo'lgan bolalarni yordamchi maktablarda o'qitiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi qanday fan?
2. Anomal bola haqida ma'lumot bering.
3. T.Stounning tajribalari haqida ma'lumot bering.
4. Pedagogik diagnostika ta'lim-tarbiya jarayonida qanday ahamiyatga ega?
5. Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim haqida nimalarni bilasiz?
6. Diagnostika tushunchasiga ma'lumot bering.
7. Pedagogik korreksiya qanday fan?
8. Jismoniy va ruhiy jihatdan nuqsoni bo'lgan bolalar qanday tarbiyalanishi kerak?

Mustaqil ta'lim

1. Tarbiyaviy diagnostika pedagogikaning ilmiy va amaliy sohasi sifatida
2. "Pedagogik diagnostika" tushunchasining mohiyati
3. Pedagogik diagnostikaning maqsadi va vazifalari
4. Pedagogik diagnostikaning asosiy funksiyalari
5. Pedagogik diagnostikaning shaxs rivojlanishidagi o'rni
6. Testlashtirish: turlari, metodiva unga qo'yiladigan asosiy talablar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – T.: "O'zbekiston", 2017. – 227-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – T.: "O'zbekiston", 2016. – 14-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent 2017, 45-bet.
4. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Gidrofiliya – Zebra / 3-tom. Tahrir hay'ati: M.Aminov va b. – T.: "O'zbekistan milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 283-b

5.G'ulomov J.R, Umarova M.H, G'ulomova N.B, Pedagogik diagnostika va korreksiya T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018y, 128-b.

6.Подласий И.П Педагогика: в 3-х кн –Москва: ВЛАДОС. 2013.

7.Talipova J.O Pedagogik kvalimetriya / o'quv qo'llanma – Toshkent 2016. 117-b.

2-mavzu: Pedagogik tarbiyaviy diagnostika uning asosiy funksiyalari turlari va metodlari.

Reja:

- 1 Tarbiyaviy diagnostikaning asosiy funksiyalari
- 2 Pedagogik psixalogik diagnostikaning shaxs rivojlanishdagi o'rni
- 3 Pedagogik diagnostika metodlarining tasnifi, turlari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar
- 4 Pedagogik konsilium medoti va undan foydalanish yo'llari

Tayanch so'z va atamalar:

Metod, kuzatish, suhbat, so'roqlash, anketa, intervyu, test, hujjatlarni tahlil qilish xulq-atvor, o'lchamli baholash, pedagogik diagnostika, tajriba-sinov, tarbiya jarayoni, konsilium, konsilium rahbari.

Diagnostika so'zi – (yunoncha diagnostikos- aniqlashga qodir)- klinik tibbiyot va veterinariyaning kasallikni aniqlash, uni davolash va oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida organizmni tekshirish usullarini o'rganadigan fandir. Ushbu atama pedagogika bilan bog'langanda ta'lim va tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni chuqur o'rganish uni sabablarini izlash va albatta yakuniy xulosa asosida korreksiya ya'ni tuzatish ishlarini olib borish bilan shug'ullanuvchi sohadir.

Istalgan kasbiy faoliyat sohasida diagnostika uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan ishlab chiqarish jarayonida mahsulotning sifatini belgilab berish bu holatdan tarbiyachi va o'qituvchilarning faoliyati ham mustasno emas. Har bir pedagogning o'zini ta'lim berish va tarbiyalash usullari mavjud bo'lib, pedagoglar ushbu

faoliyatlari natijasini doimo tekshirib baholab boradi va ushbu faoliyatining natijalari past bo'lgan taqdirda uning sabablarini o'rganib bartaraf etib boradi. Ammo bu holat hali diagnostika bilan bog'langan holat degani emas.

"Pedagogik diagnostika" – bu juda ham keng tushuncha bo'lib uning o'ziga xosligi quyida beriladigan ma'lumotlar asosida namoyon bo'ladi.

Diagnostika pedagogik maqsadlarda o'tkazilib tahlillar asosida yangi tahlil analiz olinib ularni sharhlash asosida ta'lim sifatini oshiradi va ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilar shaxsini rivijlantiradi.

- Olingan yangi yangi axborotlar asosida o'qituvchi pedagogik faoliyatida ta'lim sifatini oshiradi;

- Olingan yangi axborotlar asosida pedagog o'ziga mos keladigan yangi metodlarni tanlab olib o'zining faoliyatiga ijodiy va kreativ yondashadi;

- Pedagogik diagnostika yordamida pedagogning nazoratlarni baholashdagi faoliyat funksiyasi ortib boradi;

- Pedagog tomonidan an'anaviy qo'llanib kelinayotgan shakl, metod va vositalar diagnostika natijalari asosida qayta ko'rib chiqilishiga imkon beradi.

Ta'limda pedagogik diagnostika ta'lim-tarbiya faoliyatida uning sifat va samaradorligini aniqlab beruvchi amaliyot hisoblanib, unda erishilgan muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikni ko'rsatib beradi. Uni takomillashtirish imkonini ochib beradi. U dars jarayonida ta'lim sub'ektlari faoliyatida pedagogik texnologiyalarni qo'llash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda diagnostika ta'lim maqsadi va mazmuni, metod va vositalari, motivlar va qobiliyatlar asosida natijani ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Pedagogik diagnostika avvalo bo'sh yoki muvaffaqiyatli o'rinlarni belgilash faoliyatning keyingi bosqichlari uni hisobga olish, faoliyat natijalarini sarhisob qilish va shu asosida amaliy xulosalar yasashni ko'zda tutadi. Pedagogik diagnostikaning bu funksiyasi ta'lim – tarbiya jarayonida qayta aloqa funksiyasidir. Ta'lim –tarbiyaning ma'lum etaplarida tarbiyalanganlik va bilimdonlik haqida olingan axborotlarni tahlil qilish, kelgusida ta'lim-tarbiya jarayonini konstruksiyalashga avvalgiga nisbatan o'zgarishlarni solishtirish

imkonini beradi. Olingan axborotlarning to'liqligi va ob'ektivligi diagnostikaning boshlang'ich etapida ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda maksimal darajada real talablarga yaqinlashtiradi va uni optimal rivojlantirishga olib keladi. Agar ta'lim-tarbiya natijasi bo'yicha zaruriy informatsiyalardan o'z vaqtida aniq va to'la holda har bir o'quvchi-talabalar va pedagoglar xabardor etib borilsa, o'z vaqtida korrektilovkalar kiritib borilsagina kutilgan pedagogik maqsadlarga erishishimiz mumkin.

Baholash funksiyasi ham pedagogik diagnostikaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Har tomonlama va kompleks asosda baholash o'zining bir qancha aspektlariga ega bular quyidagilar:

- qadriyatli-yo'naltirilgan;
- doimiy korreksiyalovchi;
- rag'batlantiruvchi;
- o'lchab beruvchi va hokazolar

Qadriyatli-yo'naltiruvchi baho o'quvchi talabaga insonlar haqida o'zi haqida tushunchalar berib, unga o'zining aqliy, axloqiy, mehnat va estetik qarashlarini qadriyatlar asosida ijobiy tomonga o'zgartirib boradi.

Doimiy- korrekktiv aspektda pedagogik baholash o'quvchi talabani jamoat ijtimoiy normalar asosida o'zining xatti-harakatlarini, turmush tarzini boshqalar bilan muloqotlarini ularga mos ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Rag'batlantiruvchi baho o'quvchi talabalarning rivojlanishiga xulqiga mos ravishda qo'yilganda unga ijobiy ta'sir etib uni yangiliklarga intilish sari ruhlantiradi.

O'lchovli baholashda ta'lim oluvchilar boshqalar bilan o'zini solishtirish asosida undagi muvaffaqiyatlar yanada shaxsiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday holat o'quvchi yoki talabaning yanada intilishi va qiziqishlariga sabab bo'ladi. U endi o'zini-o'zi rivojlantirish sari yetaklaydi. Mustaqil izlanish mustaqil mutaola qilishga intiladi. Bunday hollarda talabalarning o'ziga bo'lgan ishonch kuchi ortadi. Demak o'quvchi-talaba o'ziga ishonchini u mantiqiy erkin fikrlashga, o'zini anglashga kirishadi – bu esa pedagogik diagnostikaning oliy maqsadi hisoblanadi.

Pedagogik diagnostikaning keyingi funksiyasi esa boshqaruv funksiyasi bo'lib, u talabalar jamoasi va ular shaxsining

rivojlanishini hamda tarbiya topganligini boshqarishdir. Bunday boshqaruv uch xil bosqichda olib boriladi: boshlang'ich, korreksiya-lovchi, umumlashtirilgan.

Pedagogik-psixalogik diagnostika kursining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

1) Pedagogik-psixalogik diagnostika kursini nazariy asoslari, yo'nalishlari bosqichlari va prinsiplari bilan talabalarni tanishtirish.

2) Diagnostika qilishning turli metodikalarini amalda qo'llashga o'rgatish

3) Shaxslar psixikasida xulq-atvorida yuz bergan salbiy o'zgarishlarni tuzatish ularga yordam berish usullari bilan qurollantirish.

Uning maqsadi ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanayotgan shaxsning individual sifatlarini rivojlantirishi yoki shakllantirishi lozim bo'lgan xususiyatlarning mavjudligi darajasi va o'quv jarayonida shakllantiradigan sifatlarini ko'rish mumkin. Keyingi yillar yurtimizda bilimlarni baholashning reyting tizimiga o'tish, ta'lim jarayonini takomillashtirish shu jumladan test metodining bilimlarni baholash usuli sifatida keng qo'llanilishi, turli psixalogik metodikalarga ayniqsa shaxslarning aqliy rivojlanishini darajasini o'rganishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarning oshishi respublikamizda pedagogik-psixalogik diagnostikaning nazariy va amaliy jihatdan rivojlanishiga katta turtki beradi.

Pedagogik-psixalogik diagnostika bugungi kunda maktab, bog'cha va boshqa turli tipdagi o'quv bilim yurtlari psixologlari pedagoglari oldida turgan muhim vazifalardan ularning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shakllanmoqda va rivojlanib bormoqda. Pedagogik-psixalogik diagnostikaning rivojlanib kelayotgan fan tarmog'i ekanligi va uning amaliy va dolzarbligi bilan bir qatorda shu sohani aniq chegaralari boshqa fanlardan farqi va o'ziga xos xususiyatlari hozircha to'liq tarkib topmaganligini ko'rsatib o'tish lozim. Shuning uchun biz pedagogik-psixalogik diagnostikaning ba'zi tomonlarigagina to'xtalib o'tamiz. Shunday tomonlardan biri shakllanib kelayotgan fan sohasining asosiy ob'ektlari qanday yo'naltirishlarda ish olib borilishiga to'xtalib o'tamiz. Pedagogik-psixalogik diagnostikaning asosiy yo'nalishlari


amaliyotning talab darajasidan kelib chiqqan holda shakllanmoqda. Shu sababli ham uning yo'nalishlarini bu yo'nalishlarning mohiyatini pedagogik-psixalogik diagnostika pedagogik amaliyotining qaysi sohalarida qo'llanilishini ko'rsatmasdan turib to'liq ochib berib bo'lmaydi. Quyidagi pedagogik-psixologik diagnostika qo'llanilishi juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohalaridan bir nechtasini shartli ravishda ajratib oldik.

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi, boshqarish amaliyot, didaktika va xususiy metodika, pedagogik satsiologiya, ijtimoiy psixalogiya. Yuqorida keltirilgan har bir sohada psixalogik-pedagogik diagnostikaning yo'nalishlarini tashkil etish diagnostik ishlar olib boriladi va bu ishlarning mazmuni diagnostikaning yo'nalishlarida tavsiflanadi. Bular tarbiyalanganlik darajasi diagnostikasi, tashkiliy metodik diagnostika, didaktik diagnostika, ijtimoiy psixalogik diagnostika.

Pedagogik diagnostika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab-chiqarishning keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil har qanday kamchiliklarni aniqlash, shart-sharoitlarni o'rganish jamiyat va shaxs manaviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Pedagogik diagnostikaning samarali kechishi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul va ayni damda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlar shaxsni tarbiyalash unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta va ilmiy bilimlarni berish tamoyillari va ob'ektiv, sub'ektiv omillarni aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish hamda bilish usullaridir. Shunday ekan, ilmiy tadqiqot metodlari pedagogik diagnostikada ham muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi vaqtda yurtimizda pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarini aniqlashda bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umuman aloqasi yo'q, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi bolaning



fiziologik rivoji, uning psixalogik, intellektual jihatdan takomillashib borishini ta'minlashi qarama-qarshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va ro'li shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi. Pedagogik diagnostikada ilmiy tadqiqot metodlarini amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi izchillik, tizimlilik, uzluksizlik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Bular quyidagilar:

- 1) Muammoning dolzarbligi va maqsadning aniq belgilanganligi;
- 2) Ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- 3) Vazifalarning diagnostika maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- 4) Diagnostika metodlari tizimiga nisbatan ob'ektiv yondashuv;
- 5) Pedagogik diagnostika ishlari jarayoniga jalb etiluvchi o'quvchi-talabalarning yosh, psixalogik va shaxsiy xususiyatlari hamda shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
- 6) Diagnostika natijalarini oldindan tashxislash va bashoratlash;
- 7) Diagnostika natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostikani olib borishda quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanilmoqda.

1 Pedagogik kuzatish metodi – ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilishi zarur bo'lgan pedagogik muammoni aniqlash, uning yechimini topish maqsadida qo'llaniladigan usul.

Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilayotgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish o'quvchi talaba shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Kuzatish natijalariga ko'ra tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq tahlil qilinadi. Pedagogik kuzatishning samarasi quyidagi shartlarga muvofiq ta'minlanadi:

- kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;

- har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- xulosa chiqarishga shoshilmaslik⁵

2 So'roqlash metodi. Pedagogik diagnostikada so'roqlash metodi qadim-qadimdan qo'llanilib kelinadi. Ushbu metod deyarli o'qish, o'qitish, o'rganish jarayoni boshlangandan buyon mavjud. Agar kuzatish metodida o'quvchi talabaning axloqiy-ma'naviy tamoyillari, qiziqish, munosabati, fikrlash doirasi, hamkorlikka moyilligi o'rganilsa, pedagogik diagnostikada so'roqlash metodi o'quvchi talabaning o'zlashtirish va bilim sifati haqida ko'proq axborot to'plash imkoniyatini beradi. Shu bilan birgalikda u yoki bu shaxs to'g'risida ob'ektiv yoki sub'ektiv ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Axborotlarni olish, saqlash og'zaki, yozma, standartlashtirilgan, yakka, juft va kichik guruhlariga bo'lingan holda bir yoki bir necha bor so'rash asosida to'planadi va qayta ishlanadi.

3 Suhbat metodi- savol va javob shaklidagi dialogik xarakterga ega ta'lim metodi.

Pedagogik diagnostikada ushbu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlarining imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb qilishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida o'quvchi-talabaning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishiga erishish muhimdir. Buning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

- maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmunini aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;

- suhbatni o'tkazish joyi hamda vaqtini aniq belgilash;

- suhbat ishtirokchilari soni to'g'risida ma'lum to'xtamga kelish;

- suhbatdosh to'risida oldindan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;

- suhbatdosh bilan samimiy va ochiq munosabatda bo'lish;

⁵ Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova, M.Usmonboeva, X.Raxmatova, F.Ehsonova, F.Asqarova. – Namangan: NamDU, 2014. – 192-b.

-suhbatdoshingiz o'zining fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;

- savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;

- olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilib borish;

4 Anketa metodi- (fr. "enquete" – surishtirish, ma'lumot olish, tekshirish)

– pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida dalillar to'plash maqsadida qo'llanilib, tizimli savollar yordamida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadigan metod.

Pedagogik diagnostikada ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida talabalar bilan muloqotni tashkil etishga qaratilgan. Anketa savollariga javoblar ko'proq yozma ravishda olinadi. O'rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo'ladi:

➤ ochiq turdagi savollar (o'quvchi-talabalarning erkin va batafsil javob berishlari uchun imkon beradigan savollar)

➤ yopiq turdagi savollar (o'quvchi – talabalar "ha" yoki "yo'q" "qisman" yoki "ijobiy" "salbiy" deb javob berishlari mumkin bo'ladi).

Anketa metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

➤ savollar muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;

➤ savollar yirik hajmli va noaniq bo'lmasligi kerak;

➤ savollar o'quvchilarning dunyoqarashi, yosh, psixologik xususiyatlarini

➤ inobatga olish asosida tuzilishi zarur;

➤ javoblar to'liq bo'lishi uchun yetarlicha vaqt ajratilishi kerak;

➤ anketa o'quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish

➤ manbaiga aylanmasligi zarur;

➤ javoblar muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.⁶

5 Intervyu metodi - respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish orqali uning tadqiq etilayotgan muammo, yoki umumiy

⁶ Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova, M.Usmonboeva, X.Raxmatova, F.Ehsonova, F.Asqarova.

– Namangan: NamDU, 2014. – 14-b.

muammoning biror jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabatini o'rganish metodi.

Pedagogikdiagnostikada ushbu metod o'quvchi talaba tomonidan tadbqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirishini ta'minlaydi va intervyu jarayonida tanlangan savollarga nisbatan diagnostika o'tkazuvchi shaxs tomonidan munosabat bildirishi uning samarasini oshiradi.

6 Ta'lim muassasalari hujjatlarini tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur metod O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni to'plash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi.

Bulardan tashqari pedagogik diagnostikada test metodi, pedagogik tahlil metodi, bolalar ijodini o'rganish metodi, pedagogik tajriba metodi, matematik-statistik metodlar ham faol tarzda qo'llanilib kelinadi.

Quyida biz pedagogik konsilium metodi haqida so'z yuritamiz.

Konsilium (lotincha konsilium-kengash, maslahatlashish) bir yoki bir qancha sohalaridagi mutaxassislarining ma'lum muammoni mukammal o'rganish va hal etish usullarini aniqlash uchun kengashishdir. Ushbu tushuncha ko'p fanlarda psixalogiya va pedagogikada ham qo'llaniladi. O'smirlar xulqidagi salbiy o'zgarishlarni o'rganish uchun bu atamani qo'llashda hech bir g'ayritabiiylik yo'q. Chunki bu masala o'quvchi xulqidagi o'zgarishlarni har tomonlama o'rganishni, tarbiya jarayonida xatoga yo'l qo'yilmaslikni yo'l qo'yilgan xatolikni tuzatishni kafolatlaydi.

Psixalogik-pedagogik konsilium bu ota-onalar, pedagoglar, psixologlar, metodistlar va boshqalarning o'smir xulqidagi salbiy o'zgarishlarni uning sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etishni o'rganishdir.

Psixologik-pedagogik konsiliumning maqsadi: O'quvchi-talabani psixalogik jihatdan mukammal o'rganish va tahlil qilish uning psixik rivojlanganlik darajasini, shaxsiy sifatlarini xarakterini temperamentini, o'qishdagi va oiladagi sharoitini, sog'ligini. o'quv guruhidagi mavqeyini, tengdoshlari orasidagi tutgan o'rmini o'rganish va o'quvchiga uning ota-onasiga, pedagoglarga yordam berish. Pedagogik psixalogik konsilium faqatgina tarbiyasi og'ir o'smirlar uchungina emas, balki individual psixalogik xususiyatlariga ko'ra oilasida, o'quv guruhida yoki o'zining ichki qiyinchiliklariga uchragan o'smirlar uchun ham foydalidir. O'smirlarning psixik rivojlanish qonuniyatlari, ularga ta'sir qiluvchi sabablarni o'rganish oilada va ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri yo'l tutish imkonini beradi.

Pedagogik konsiliumda psixologning vazifasi: o'quvchi intellektual taraqqiyotini baholashda o'qituvchilarga har xil tomondan yondashuvga yordamlashishdan iborat.

Nazorat uchun savollar:

1 Pedagogik diagnostika tushunchasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

2 Korreksiya so'zi qnday ma'noni anglatadi va pedagogikada qanday ahamiyati bor?

3 Tarbiyalanganlik tushunchasiga ta'rif bering?

4 Rag'batlantiruvchi baho qanday baho?

5 Boshlang'ich diagnostika nima?

6 Pedagogik-psixalogik diagnostika kursining asosiy vazifalarini sanab bering?

7 Shaxsni tarbiyalashda pedagogik diagnostikaning o'rni qanday?

8 Kuzatuv metodi haqida ma'lumot bering?

9 So'roqlash va suhbat metodlarining o'xshash va farqli jihatlari qanday?

10 Anketa metodi haqida ma'lumot bering?

11 Intervyu metodi bu qanday metod?

12 Ta'lim muassasalari hujjatlarini tahlil qilish metodi haqida ma'lumot bering?

13 Konsilium tushunchasi haqida ma'lumot bering?

14 Pedagogik-psixalogik konsiliumning maqsadi qanday?

Mustaqil ta'lim

1. Anketalashtirish: turlari, metodi va unga qo'yiladigan asosiy talablar
2. Suhbat metodi: turlari, metodi va unga qo'yiladigan asosiy talablar
3. Pedagogik kuzatish metodi: turlari, metodi va unga qo'yiladigan asosiy talablar
4. Satsiometriya metodi: turlari, metodi va unga qo'yiladigan asosiy talablar
5. Shaxs faoliyati yo'nalishlarini aniqlash metodi: qo'llanilish tartibi va ma'lumotlarni ishlash
6. Pedagogik konsilium yoki ekspertlar metodi: mazmuni, mohiyati va qo'llash tartibi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov J.R, Umarova M.H, G'ulomova N.B, Pedagogik diagnostika va korreksiya T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018y, 128b
2. Подласий И.П Педагогика: в 3-х кн –Москва: ВЛАДОС. 2013
3. Talipova J. O Pedagogik kvalimetriya / o'quv qo'llanma – Toshkent 2016. 117 b
4. Yo'ldoshev J.G', Shirinov M.K., Ochilov F.I. Pedagogik diagnostika O'quv-metod.qo'll. – 2014. – 96 b.
5. Педагогика. Изохли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 192-б.
6. Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova, M.Usmonboeva, X.Raxmatova, F.Ehsonova, F.Asqarova – Namangan: NamDU, 2014. – 192-b.
7. Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova, M.Usmonboeva, X.Raxmatova, F.Ehsonova, F.Asqarova.– Namangan: NamDU, 2014. – 14-b.

3- mavzu: Pedagogik diagnostikada o'quvchilar yosh xususiyatlarining o'ziga xosliklari

Reja:

1. Maktab o'quvchilarini pedagogik diagnostika qilish metodlari ularning turlari qo'llanilishidagi asosiy talablari.
2. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari.
3. Pedagogik diagnostikada bola rivojlanishining yosh xususiyatlari.

1. Maktab o'quvchilarini pedagogik diagnostika qilish metodlari ularning turlari qo'llanilishidagi asosiy talablari.

Globallashuv sharoitida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni ifodalovchi ijtimoiy-pedagogik talab yangi tamoyillar bilan boyitilgan holda takomillashuvga erishib bormoqda. Agarda mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish talabi pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyoti tarixining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy sub'ektning estetik hissiyotlarga boy bo'lishiga erishish negizida qondirilgan. Kishilik munosabatlari tarixining keyingi davrlarida shaxs faoliyatining o'ziga xos original, juz'iy g'oyalarga ega bo'lishiga erishish bilan tavsiflangan.

Umumiy holda fiziologik va intellektual jihatdan turli yosh davrlari shaxsning muayyan darajada fikrlash qobiliyati, tafakkur darajasini ega bo'lishini namoyon qiladi. Biroq, bu degani ma'lum intellektual rivojlanish darajasi ayni bir davrdagi yosh xususiyatlariga bog'liq, degani emas. Ba'zi 5-6 yoshli bolaning xotirasi, nutqi, fikrlash qobiliyati, mantiqiy mulohazalari 30-40, hatto 50 yoshli kishining bu turdagi rivojlanish holatidan yuqori bo'lishi mumkin. Bu holat psixologiyada noyob qobiliyat, deb yuritiladi.

Masalan, buyuk mutafakkir, hazrati Alisher Navoiy 5 yoshida Farididdin Attorning "mantiq ut-tayr" asarini to'la yod olgan bo'lsa, rus she'riyatining dahosi Aleksandr Pushkin esa o'z xotiralarida "she'rlar yozishni va xuddi shu davrdan ularni chop ettirishni boshladim", deb yozgan edi.

Shaxsning muayyan yosh davrlari tarbiyaning ma'lum darajasini ifodalaydi. Masalan, maktabgacha ta'lim tashkilotining

tarbiyalanuvchisi muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo'lsa ham hali ularda mehnat ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Ammo u shu yoshda kattalar va tengdoshlari bilan ijobiy munosabatda bo'lish, salomlashish, minnatdorchilik bildirish, iltimos qilish, o'ziga yoqmagan holatlarni ayta olish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Shaxsni tarbiyalash (yoki shaxsning tarbiyalanish) jarayoni umr bo'yi davom etadi. Ammo, shaxsni tarbiyalashda "qiyin o'tish davri" hisoblanadigan o'smirlik davri alohida o'rin tutadi. Aynan shu yosh davrida o'quvchi shaxsida hayotiy maqsadlar, intilishlar, ijtimoiy qarashlar shakllanadi.

O'smirlikning "qiyin yosh davri" bo'lishi o'quvchi organizmida kechadigan keskin fiziologik o'zgarishlar va uning shaxsga psixologik ta'siri bilan bog'liq. Shu sababli oilada, ta'lim muassasalarida o'smir bilan ishlashga yanada jiddiy yondashishga e'tibor qaratiladi. Bunda o'quvchi shaxsi, uning xatti-harakatlari va faoliyatiga nisbatan oqilona pedagogik talablarni qo'yish, ularning izchil bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Har qanday pedagogik talab keskin taqiqlar va cheklovlardan xolis bo'lishi lozim. Qolaversa, imkon qadar uning qo'yilayotgan talabning o'quvchi tomonidan qabul qilinishi borasida fikrini bilish muhim. O'quvchining fikri, o'qituvchi, ota-onalar va mutaxassislarning yondashuvlari o'zaro qiyosiy o'rganilgan holda tarbiyaviy faoliyat rejalashtirilishi zarur. Tarbiya jarayonida imkon qadar har bir o'quvchi uchun individual yondashuv bo'lishi kerak. Zero, o'quvchilar turlicha psixologik xarakter, fiziologik imkoniyat (ayniqsa, mehnat ko'nikma, malakalarini shakllantirishda inobatga olinadi), hayotiy maqsadlar, muayyan darajada ma'naviy-axloqiy fazilatlar, hayotiy tajribaga ega.

2. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari.

Rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan sonli va sifatli ko'rsatkichlarini aniqlash muhimdir. Anomal

bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion – rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan psixologik-tibbiy pedagogik komissiyalar (PMPK) shug'ullanadilar. Bu borada mutaxassislarning quyidagi tamovillarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

1. Insonparvarlik tamoyili har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganish, uning yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llari va vositalarini izlashni talab etadi.

2. Bolalarni kompleks o'rganish tamovili bolaga tashhis qo'yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlarga tanishni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo'lsa, bola qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

3. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish tamovili bolaning idrok etish, emotsional-irodaviy sifatlari va xulqini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi.

4. Bolani dinamik o'rganish tamoviliga binoan tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning o'qitishdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi. L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" — bolalarning o'qishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta'limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi.

5. Sifativ-miqdoriy yondashuv tamoyili bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijanigina emas, balki usuli, masalani yechish uchun tanlangan yo'lning ratsionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma ketligi, maqsadga erishishdagi qat'iylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

6. Ma'lum turdagi patologivali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish tamovili har bir maxsus ta'lim muassasasi o'zi qoidalariga egaligini tavsiflaydi.

7. Rivojlanishida mavjud bo'lgan chetlanishlar darajasiga ko'ra differentsiallashtirilgan ta'limni tashkil etish tamovili

rivojlanishida bir xil, lekin darajasiga ko'ra turli chetlanishga ega bolalarni ajratgan holda o'qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ularni o'qitish metodikasida sezilarli farqlar mavjud (masalan, ko'zi ojiz bolalar taktil asosda (Brayn tizimi bo'yicha), yomon ko'ruvchilar esa ko'rish asosida o'qitiladi).

8. Yoshi tamovili har bir guruh yoki sinfga ma'lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishini ifodalaydi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni tekshirish va ularga korreksion yordam ko'rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. PMPKning tarkibida quyidagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar: pedagog, psixolog, shifokor, psixiatr, nevropatolog, otolaringolog, ortoped, oftalmologlar, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog hamda logoped. PMPK ishlariga defektologik ta'lim va anomal bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega mutaxassis rahbarlik qiladi.

3. Pedagogik diagnostikada bola rivojlanishining yosh xususiyatlari.

Insonning yoshiga ko'ra, hayotning bolalik yillari ma'lum vaqtlarga bo'linadi. Tibbiy tasnifda diagnostika va davolashning tibbiy usullari bilan bog'liq holda organizmning anatomik va fiziologik xususiyatlari hisobga olinadi. Ko'p bo'limlar jamiyat, pedagogika, yurisdiksiya uchun nomaqbul ko'rinadi, ammo bola rivojlanishining yosh bosqichlari u yoki bu tarzda kontseptsiyadan keyingi birinchi daqiqadan boshlanadi va quyidagi davrlarga bo'linadi:

Embrional;

Perinatal;

Ko'krak;

Maktabgacha;

Maktab: kichik va katta (balog'at yoshiga etgan).

Bolaning intrauterin bosqichi 280 kun davom etadi, ya'ni 10 oylik oy. Ushbu hayot davrida homila rivojlanishining uchta inqiroz nuqtasi aniqlanadi:

Zigota hosil bo'lishi;

Plasenta shakllanishi;

Tug'ilish.

Insonning intrauterin hayotining har bir qismida ichki organlarni yotqizish va shakllantirish jarayonlari sodir bo'ladi. Bu tug'ma kasalliklarning oldini olish uchun katta ahamiyatga ega. Zararli omillar chiqarib tashlanadi, kelajakdagi ona uchun zarur va xavfsiz dorilar tanlanadi. Bola rivojlanishining neonatal bosqichi inson hayotining dastlabki to'rt haftasini qamrab oladi. Bu neonatal davr, bu intrauterin turishdan keyin hayotga moslashish bilan tavsiflanadi. Ayni paytda bola tanasi atrof-muhitning tajovuzkor omillari bilan doimiy kurash olib boradi. Keyinchalik moslashish go'daklik davrida sodir bo'ladi. Emizgan bolalar infeksiyalarga nisbatan ancha chidamli, chunki ular onaning immuniteti bilan himoyalangan. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda chaqaloq tanasidagi ko'plab jarayonlar umumlashtirishga moyil. Shunday qilib, deyarli barcha bolalarda febril reaksiya konvulsiv sindrom bilan kechadi. Hayotning bir yiliga kelib bola rivojlanishining ko'krak bosqichi tugaydi. Bola atrof-muhitga to'liq moslashadi. Maktabgacha taraqqiyot davri bir yildan uch yilgacha davom etadi. Bolalar yoshi bilan bog'liq infeksiyalarga tengdoshlari bilan aloqani kuchaytirish orqali ta'sir qilishadi. Bunday qisqa vaqt ichida bolaning nutqini rivojlantirishning barcha bosqichlari o'tadi, shuning uchun bolalar logoped tomonidan majburiy tekshiruvdan o'tkaziladi. Bolaning maktabgacha taraqqiyot bosqichi uch yildan etti yilgacha davom etadi. Tana vaznining o'sishida sezilarli pasayish kuzatiladi, ammo oyoq-qo'llarning o'sishi davom etmoqda. Olti yoshida sut tishlarini doimiy tishlarga almashtirish boshlanadi. Patologik jarayonlar tizimli xarakterini yo'qotadi va kasalliklar ayrim organlarning mag'lubiyati bilan cheklanadi. Bolalikning boshlang'ich maktab davrida suyak tizimi eng katta stressga duchor bo'ladi, umurtqa pog'onasi egriligining oldini olish amalga oshiriladi. Bolaning rivojlanishining ushbu bosqichida ovqatlanishning o'zgarishi oshqozon-ichak trakti patologiyasini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bolalar gigiena qoidalariga rioya qilmaslikdan aziyat chekishadi, bu "iflos qo'llar" kasalliklari bilan namoyon bo'ladi: ichak infeksiyalari, gelmintoz, o'tkir gepatit.

Nazorat uchun savollar:

1. Kuzatuv qanday savolga javob berishi kerak?
2. Kuzatuv qanday sharoitlarda o'tkazilishi lozim?

3. Kuzatuvga qo'yilgan xulq yuzasidan kategoriyalar, tushunchalar taqsimlab chiqilganmi, shu tushunchalar yordamida qo'yilgan savolga javob bering.

4. Insonparvarlik tamoyili haqida nimani tushunasiz?

5. Tajriba-sinov metodi sharoitga qarab necha xilda o'tkaziladi va ular qaysilar?

Mustaqil ta'lim

1. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korreksion ishlar tamoyillari va metodlari.

2. O'quvchining rivojlanish xaritasi : mazmuni, mohiyati va qo'llash tartibi

3. O'quvchilarni diagnostika qilishda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish: asosiy talablar

4. Maktab o'quvchilarini pedagogik diagnostika metodlari: mazmuni, mohiyati va qo'llash tartibi

5. Pedagogik korreksiyaning maqsadi va vazifalari

6. Pedagogik diagnostika o'quvchilar yosh xususiyatlari

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov J.R, Umarova M.H, G'ulomova N.B, Pedagogik diagnostika va korreksiya T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018y, 128b

2. Подласий И.П Педагогика: в 3-х кн –Москва: ВЛАДОС. 2013

3. Talipova J.O Pedagogikkvalimetriya / o'quv qo'llanma – Toshkent 2016. 117 b.

4. Педагогика. Изохли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 192-б.

5. Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova, M.Usmonboeva, X.Raxmatova, F.Ehsonova, F.Asqarova – Namangan: NamDU, 2014. – 192-b

4- mavzu: Tarbiyaviy korreksiyaning umumpedagogik va maxsus tamoyillari.

Reja:

1. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy korreksion faoliyatni tashkil etish dolzarbligi.

2. Korreksion faoliyatning umumpedagogik tamoyillari mazmuni.

3. Korreksion faoliyatni tashkil etishda maxsus tamoyillarning ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar: reabilitatsiya, Anomal, Tashkiliy-metodik diagnostika, Didaktik diagnostika, Ijtimoiy-pedagogik diagnostika, Ijtimoiy psixologik-pedagogik diagnostika, Pedagogik psixodiagnostika.

Pedagogik lug'atda "korreksiva" tushunchasi (yunoncha "correctio" — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) rivojlanishida turli kamchiliklar bogan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- 2) differensatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- 3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- 4) rivojlanish anomaliasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

6) anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik choratadbirlar tizimini ishlab chiqish;

7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lmagan bolalar bilan korreksion pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

5. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lmagan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

6. Bolalarni rehabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

7. Anomal bolalar bilan koreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan sonli va sifatli ko'rsatkichlarini aniqlash muhimdir.

4- mavzu: Tarbiyaviy korreksiyaning umumpedagogik va maxsus tamoyillari.

Reja:

1. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy korreksion faoliyatni tashkil etish dolzarbligi.
2. Korreksion faoliyatning umumpedagogik tamoyillari mazmuni.
3. Korreksion faoliyatni tashkil etishda maxsus tamoyillarning ahamiyati.

Tayanch so'z va iboralar: rehabilitatsiya, Anomal, Tashkiliy-metodik diagnostika, Didaktik diagnostika, Ijtimoiy- pedagogik diagnostika, Ijtimoiy psixologik-pedagogik diagnostika, Pedagogik psixodiagnostika.

Pedagogik lug'atda "korreksiva" tushunchasi (yunoncha "correctio" — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) rivojlanishida turli kamchiliklar bogan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korreksion-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- 2) differensatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- 3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- 4) rivojlanish anomaliasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

6) anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik choratadbirlar tizimini ishlab chiqish;

7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksion ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

2. Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lmagan bolalar bilan korreksion pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

3. Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

4. Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish.

5. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lmagan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

6. Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

7. Anomal bolalar bilan koreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar maxsus, korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korreksion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan sonli va sifatli ko'rsatkichlarini aniqlash muhimdir.

Anomal bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion – rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan psixologik-tibbiy pedagogik komissiyalar (PMPK) shug'ullanadilar.

Bu borada mutaxassislarning quyidagi tamoyillarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

1. Insonparvarlik tamovili har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganish, uning yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llari va vositalarini izlashni talab etadi.

2. Bolalarni kompleks o'rganish tamoyili bolaga tashxis qo'yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlarga tanishni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo'lsa, bola qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

3. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish tamoyili bolaning idrok etish, emotsional-irodaviy sifatleri va xulqini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi.

4. Bolani dinamik o'rganish tamoyiliga binoan tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning o'qitishdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi. L.S.Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" — bolalarning o'qishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta'limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi.

5. Sifativ-miqdoriv yondashuv tamovili bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijanigina emas, balki usuli, masalani yechish uchun tanlangan yo'lning ratsionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma ketligi, maqsadga erishishdagi qat'iylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

6. Ma'lum turdagi patologiyali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan ajratish tamoyili har bir maxsus ta'lim muassasasi o'zi qoidalariga egaligini tavsiflaydi.

7. Rivojlanishida mavjud bo'lgan chetlanishlar darajasiga ko'ra differentsatsiyalashtirilgan ta'limni tashkil etish tamoyili rivojlanishida bir xil, lekin darajasiga ko'ra turli chetlanishga ega bolalarni ajratgan holda o'qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ularni o'qitish metodikasida sezilarli farqlar mavjud (masalan, ko'zi ojiz bolalar taktil asosda (Brayn tizimi bo'yicha), yomon ko'ruvchilar esa ko'rish asosida o'qitiladi).

8. Yoshi tamoyili har bir guruh yoki sinfga ma'lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishini ifodalaydi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni tekshirish va ularga korreksion yordam ko'rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. PMPKning tarkibida quyidagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar: pedagog, psixolog, shifokor, psixiatr, nevropatolog, otolaringolog, ortoped, oftalmologlar, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog hamda logoped. PMPK ishlariga defektologik ta'lim va anomal bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega mutaxassis rahbarlik qiladi.

Talabalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ayrim hollarda ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri ostida uning ruhiy dunyosiga umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, istiqbolga ishonmaslik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi. O'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonmaslik, o'qishga nisbatan esa salbiy munosabatning kelib chiqishi talaba ruhiyatida keskin tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buning oqibatida ayrim yoshlar o'ta zararli oqimlarga – aqidaparastlik, terrorchilik illatlariga qo'shilib qolishi, giyohvandlik, ichkilik, qimorbozlik, turli jinoyat ishlari kabi jirkanch yoilarga kirib qolishlari mumkin.

Pedagogik diagnostika vazifalari:

Shaxsiy yo'naltirilgan yondashuvning amalga oshirilishini ta'minlash;

Pedagog kasbiy faoliyati natijalarining to'g'ri aniqlanishini ta'minlash;

➤ Bolalarni bitta guruhdan boshqasiga ko'chirishdagi xatolar sonini kamaytirish;

➤ Shaxsiy ta'limga bo'lgan qiziqishini aniqlash;

➤ Bola shaxsining samarali rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni aniqlash;

Pedagog faoliyatini baholash (kasbiy rivojlanish darajasini o'zicha baholash).

➤ Fanning vazifasi pedagogik diagnostika va korrektsiyaning funksiyalari, tamoyillari va umumiy metodlari bilan qurollantirish;

➤ pedagogik jarayonni tashxis etish va korrektsiyalash ko'nikmalarini shakllantirish;

➤ pedagogik jarayonni tashxis etish va korrektsiyalash metodikalarini samarali qo'llashga o'rgatishan iborat.

—Pedagogik diagnostika va korrektsiyal o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

– pedagogik diagnostikaning mohiyati, predmeti va funksiyalari;

– pedagogik diagnostikaning obyektlari;

– diagnostik tadqiqotlarning tuzilishi;

– pedagogik voqelikni diagnostik tadqiq etishning umumilmiy tamoyillari;

– diagnostik tadqiqotlarni o'tkazishga qo'yiladigan talablar;

– korreksion faoliyatning mazmuni va mohiyati;

– korreksion faoliyatning asosiy tamoyillari haqida bilimga;

– diagnostik ma'lumotlarni to'plash, o'lchash va qayta ishlash;

– pedagogik testlarni ishlab chiqish;

– o'quvchilarni aqliy va axloqiy rivojlanish darajalarini tashxis etish;

– o'quvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligini tashxis etish;

– korreksion faoliyatning umumpedagogik va maxsus metodlarini qo'llash

– Pedagoglarning umummaktab va individual metodik ishlari bilan o'z ustida ishlashi va rivojlanishi, dunyoqarashini boyitish ishlarining uzviy bog'liqligini ta'minlash;

Maktab ichki boshqaruvi tizimining muhim va tarkibiy qismi bo'lib hisoblangan ta'lim muassasasida metodik ishlarning muqobil rejalashtirilishini ta'minlash Har bir ta'lim muassasasi uchun muqobil mualliflik metodik tizimni loyihalashtirish va joriy qilish. Demak, diagnostika va o'zini- o'zi diagnostika qilish zamonaviy

diagnostika har bir pedagog va rahbarning faoliyatiga aniqlik kiritadi, ularni ta'lim- tarbiya va metodik jarayonni jadallashtirishga qaratilgan ko'pgina amaliy vazifalarni hal qilishga yo'naltiradi.

Psixologi-pedagogik diagnostikaning asosiy yo'nalishlari pedagogik amaliyotning talab darajasidan kelib chiqqan xolda shakllanmoqda. Shu sababli ham uning yo'nalishlarini, bu yo'nalishlarning mohiyatini psixologik-pedagogik diagnostika pedagogik amaliyotning qaysi sohalarida qo'llanilishini ko'rsatmasdan turib, ularni to'liq ochib berib bo'lmaydi. Biz quyida psixologik-pedagogik diagnostika qo'llanilishi juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan bir nechtasini shartli ravishda (hayotda esa ular umumiy, bitta pedagogik jarayonning ajralmas qismlaridir) ajratib oldik.

Ular quyidagilar:

1. Ta'lim – tarbiya nazariyasi va metodikasi.
2. Boshqarish amaliyot.
3. Didaktik va xususiy metodika.
4. Pedagogik sosiologiya.
5. Ijtimoiy psixologiya.
6. Pedagogik psixologiya.

Bu sohalarning asosiy vazifalari, predmeti pedagogik va psixologik adabiyotlarda, o'quv qo'llanmalarida juda keng yoritilganligini hisobga olib, ularga batafsil to'xtalib o'tmaymiz.

Yuqorida keltirilgan har bir sohada psixolog yoki shu sohalarga qiziquvchi mutaxassislar ma'lum diagnostik ishlarni amalga oshiradilar. Mana shu ishlar majmuasi psixologik-pedagogik diagnostikaning yo'nalishlarini tashkil qiladi. Har bir sohada o'ziga xos diagnostik ishlar olib boriladi va bu ishlarning mazmuni psixologik-pedagogik diagnostikaning yo'nalishlarini tashkil qiladi.

Bu yo'nalishlarga quyidagilar kiradi (Mixaylichev E.A.,1997)

1. Tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish.
2. Tashkiliy-metodik diagnostika.
3. Didaktik diagnostika.
4. Ijtimoiy- pedagogik diagnostika.
5. Ijtimoiy psixologik-pedagogik diagnostika.
6. Pedagogik psixodiagnostika.

Yo'nalishlarning mazmuniga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

Tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish – bu yo‘nalish o‘quvchilarning tarbiyalanganligini, ularning xulq-atvorini, odob-axloqini, tarbiyalanuvchanligi (tarbiyaviy ta’sirlarga berilishi) ni o‘rganishdan iboratdir.

Tashkiliy-metodik diagnostika - pedagoglarning kvalifikatsiyasini, o‘quv jarayonining uslubiy ta’minlanganlik darajasini baholashdir.

Didaktik diagnostika – pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun xizmat qilishdir (o‘quv jarayonining tashkiliy metodik tomonlaridan tashqari). O‘quvchilarning og‘zaki va yozma javoblarini, javoblaridagi tipik xatolarini, ularning sabablarini, o‘quv faoliyatidagi salbiy o‘zgarishlarni, ularda o‘quv mehnat malaka va ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajasini, ta’lim olishga nisbatan moyilliklarini diagnostika qiladi.

Ijtimoiy-pedagogik diagnostika- o‘quvchilarning pedagogik qarovsizligi moslashganlik, tarbiyasi og‘ir bolalarni diagnostika qilishda ijtimoiy omillarni hisobga oluvchi yo‘nalishdir. Diagnostika pedagoglar tomonidan maktabdan, o‘quv yurtidan tashqarida olib boriladi. Shu sababli diagnostika jarayonida oila sosiologiyasi va iqtisodi, huquq sosiologiyasi, dam olish sosiologiyasi, iqtisodiy sosiologiya kabi sohalarda qo‘llaniladigan metodikalar va ko‘rsatkichlardan foydalanishni taqozo qiladi.

Ijtimoiy psixologik - pedagogik diagnostika - bu yo‘nalish sosiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogikani o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, o‘quvchilar, pedagoglar, ota-onalar guruhlarini, o‘quvchilarga ommaviy kommunikasiya vositalarining (radio, televidenie, gazetalar va hokazo) ta’sirini, ularning burch va huquqlari, ular orasidagi munosabatlarni o‘rganishga yo‘naltirilgandir.

Pedagogik psixodiagnostika- psixologik - pedagogik diagnostikaning eng yaxshi rivojlangan va muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning aqliy rivojlanish darajasini aniqlash, o‘z-o‘zini baholashi, psixologik «himoya usullari» ni, u o‘zining psixik holatlarini, xarakterining asosiy sifatlarini va boshqa individual- psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgandir.

Albatta, har qanday fan sohasi o‘ziga xos ob’ektga va predmetga va ularga mos keladigan tadqiqot yoki amaliy o‘rganish

metodlariga, o'z tamoyillariga egadir. Psixologik - pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar va tamoyillar hozirgi zamon psixologiya fani va pedagogika fanidan orttirilgan ilmiy, amaliy tajribalar, shakllangan tamoyillar asosida shakllanmoqda. Shu bilan birga o'z xususiyatlariga ega hamdir. Buning sababi psixologik - pedagogik diagnostikada qo'llaniladigan metodlar va tamoyillar fanda biror yangilik ochishdan ko'ra ko'proq mavjud bilimlar, metodlar, tamoyillarning amalda samarali qo'llanishiga xizmat qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik diagnostikada bola rivojlanishining yosh xususiyatlari.
2. Pedagogik korreksiyaning tashkil etish shakllari
3. Pedagogik korreksiyaning umumpedagogik va maxsus tamoyillari
4. Pedagogik korreksiyada umumtarbiyaviy metodlarni qo'llanilishi yo'llari
5. Pedagogik korreksiya metodlarini tanlash hamda amaliyotta qo'llashda qo'yiladigan talablar
6. Umumta'lim maktablarida tarbiyaviy korreksiyon faoliyatni tashkil etish dolzarbligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov J.R, Umarova M.H, G'ulomova N.B, Pedagogik diagnostika va korreksiya T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018y, 128b.
2. Подласий И.П Педагогика: в 3-х кн –Москва: ВЛАДОС. 2013.
3. Talipova J.O. Pedagogik kvalimetriya / o'quv qo'llanma – Toshkent 2016. 117-b.
4. Педагогика. Изоҳли луғат / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014.

5- mavzu: Pedagogik korreksiya metodlari. Pedagogik korreksiyaning guruhli va individual tarzda tashkil etish.

Reja

1. Pedagogik korreksiyada umumtarbiyaviy, interfaol, ta'limning ma'lumot beruvchi metodlar va ularni qo'llanilishi.
2. Maktab o'quvchilarini Pedagogik korreksiya qilishda qo'llaniladigan metodlarning turlari.
3. Pedagogik korreksiyaning guruhli va individual tarzda tashkil etish.
4. "Tushuntiruvchi suhbat" metodikasi va uni amaliy faoliyatda foydalanish.
5. Ijtimoiy -pedagogik treningning to'g'risida tushuncha. Ijtimoiy pedagogik treningning maqsadi, vazifalari hamda tashkil etish texnologiyasi.

Tayanch so'z va iboralar: Pedagogik korreksiya, metodlar, umumtarbiyaviy, interfaol, individual, maktab, ijtimoiy-pedagogik trening.

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'lim metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi. Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytiladi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, maktabgacha ta'lim tashkilotida o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga

o'xshash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalanib harakatni amalga oshirishda har turli metodlarni qo'llaniladi. Masalan, savod o'rgatish maqsadida yuqorida aytilgan yo'llardan istalgani tanlangandan keyin, shu har bir yo'l uchun maqsadga muvofiq deb hisoblangan metodlarni qo'llaniladi. Bular, oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotida, maktabda savod o'rgatishni amalga oshirishda o'qituvchinnng, tarbiyachining qo'llaydigan ish usullarini; kompyuter, kitob va boshqa ta'lim- tarbiya vositalarini belgilangan maqsadga muvofiq qo'llash metodlarini o'z ichiga oladi. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatish yuzasidan ham tanlangan har bir yo'l o'ziga xos metodlarni qo'llashni nazarda tutadi. Demak har bir harakat ma'lum yo'lda va shunga muvofiq metodda amalga oshiriladi. Biror metodni qo'llashdagi harakatni amalga oshirish ko'rinishi deb shu harakatni batafsil tasvirlovchi ko'rinishga aytiladi. Bunda harakatning kuzatiladigan o'zgarishlari, vaziyatlari, tezligi va uning ortishi yoki sekinlashuvi, to'xtashlari, bir nechta harakatlarning bir vaqtdaligi yoki ularning vaqt oraliqlari, harakatlar natijasi, amaliy ishlar bajarish mashg'ulotlarida esa, ishlov berilayotgan shakllar, fazoviy holatlar, ranglar, qattiq-yumshoqlik, sirtlarning tekisligi yoki g'adir-budurligi o'zgarishlari va boshqa kuzatish mumkin bo'lgan turli harakat ko'rinishlari nazarda tutiladi. Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalaniladi. Bu metodlarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operatsiyalarining yoki yo'llarining yig'indisi deyish mumkin. Ushbu qo'llanmada metod tushunchasini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq jihatlardan ko'rib chiqiladi. Shunga muvofiq ta'lim metodlari bilan bog'liq eng asosiy tushunchalarning izohlarini ko'rib chiqamiz.

Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. **Pedagogika** fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar. **Usul** – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Uslub – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi. Yo'l (ruscha – priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi. Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, har bir ta'lim metodi tarkibiga muayyan ta'lim-tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgan ish-harakat usullari, yo'llari kiradi.

Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va

chuqurlashishiga erishiladi. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim" va boshqalar. Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor" va k. Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Korreksion faoliyatni tashkil etish. Tahsil oluvchilarning faoliyat yo'nalishini korreksiyalashda - jamoaviy, shaxsiy va ishchanlik yo'nalishlarini (ishga, faoliyat jarayoniga bo'lgan munosabat yo'nalishlarini, ijodiy faoliyatga qiziqishni) alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Yo'nalishning jamoa, Shaxsiy turlari bir xil, to'g'ri tavsifga ega bo'lmasligi kerak. Haqiqiy yo'nalishdan tashqari "xudbinlik guruhi" deb atalgan yo'nalish - boshqa jamoalarning qiziqishlarini mutlaqo mensimagan holda faqat bitta jamoaning, (guruh) qiziqishlarinigina e'tirof etadigan yo'nalish ham

bor. Shaxsiy yo'nalish Shaxsiy yutuqlarga erishishga qaratilgan yo'nalish sifatida hamma vaqt ham jamoa yo'nalishiga qarama - qarshi bo'lavermaydi. Pedagogik korreksiyalashda tarbiyaviy ish metodlari qo'llanilayotganda, tarbiyalanayotgan o'smirning yosh va individual xususiyatlarini, ikkinchidan, Shu o'quvchi a'zo bo'lgan jamoaning xususiyatlarini, nihoyat, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatiladigan muayyan konkret sharoitlarni hisobga olish zarur. Shaxsning ijobiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun yoshlarning barcha vaziyat va holatlarida to'g'ri yo'l tutishi uchun uning nima qilishni bilishi, o'zi hurmat qiladigan kishilarning nima qilayotganliklarini ko'rishi va o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishga mashq qilishi zarur. Yoshlarda bilimlar - axloqiy tasavvurlar va tushunchalarning muayyan sistemasini kamol toptirmasdan turib haqiqiy e'tiqodlarni tarkib toptirib bo'lmaydi. O'z - o'zidan bu bilimlar axloqiy xulq - atvorni belgilamasdan turib, unga muhim ta'sir ko'rsata olmaydi. Shaxsning ijtimoiy yo'nalganligi, ma'rifiy mukammallikka intilishi kabi insoniy tuyg'ularni kamol toptirish zamonaviy pedagog, psixologlarning diqqat markazidagi vazifadir. Pedagogik diagnostikada bilimdonlikning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik vaziyatlarni oqilona baholash, ularning umumiy shakllarini, uslublarini bilishni talab qiladi. Bu korreksiyalash ishlarini olib borayotgan o'qituvchi, tarbiyachidan metodologik, nazariy, uslubiy, texnologik bilimlar bilan qurollanishni taqozo etadi. Korreksiyalash jarayonida yoshlarda ma'naviy-ma'rifiy sifatlarni shakllantirish nazarda tutiladi.

Pedagogik korreksiyalashda - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati o'zaro ta'sir ko'rsatish uslublariga bog'liq ekanligi shak-shubhasizdir. Korreksiyalash har bir yoshga, shaxsga, har qaysi yoshlar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Yoshlar xulqidagi *nuqsonlarni* bartaraf qilish uchun turli korreksion metodikalardan, *jumladan: ijtimoiy ongni shakllantiruvchi* uslublar; faoliyat *jarayonida* ijtimoiy ongni va tajribalarni shakllantirish uslublari; o'z-o'zini tarbiyalash uslublari; rag'batlantirish va jazolash uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi talabalarining salbiy hislatlarini korreksiyalashda *tadqiqot* natijalarining sarhisobi ilmiy izlanishlarning

samaradorligini oshirishda alohida ahamiyatni kasb etadi. Ayniqsa mafkuraviy poligonlarda yoshlar ongi va qalbi uchun kurash keskinlashgan bir paytda pedagogik diagnostika va korreksiyalashning ahamiyati, o'tkazilgan har bir treningning o'rni beqiyos ekanligi shubhasizdir. Korreksiyalashda o'tkaziladigan tajriba, tekshirish va kuzatishlarning natijalarida tasodifiylik elementlari har doim mavjud bo'lganligi uchun bu natijalarning samaradorligini matematika-statistikaviy uslub bilan tekshirish lozimligini unutmaslik kerak. Buning uchun pedagogik treninglar natijalarini tasodifiy miqdorlar bilan tekshirib, tahlil qilinadi va ishonchli xulosalar chiqariladi. Pedagogik korreksiyalashga xos bo'lganlik shundaki, bunda qo'llanilgan vositalarning samaradorligi muayyan bir guruh ob'ektlarining (talabalar, o'quvchilar, formal va noformal guruhlar va h.k) yoki turli ob'ektlarning ma'lum bir vaqt ichida erishgan yutuqlari yoki xossalarni taqqosla. Shu asosida tekshirilishda qiyinchilik tug'diradi. Qo'llanilgan muayyan yangi korreksion yo'nalishning samaradorligini tekshirish uchun muayyan guruhlarini tanlab olish maqsadga muvofiq. Bu guruhlar matematik statistika tilida «bog'liq tanlama» deb ataladi. Bog'liq tanlanmalar, tasodifiylik asosida tanlab olingan o'quvchi-talabalar qism-guruhlaridan iborat bo'ladi. Bog'liqmas tanlanmalar uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quvchi-talabalarning turli o'quv guruhlaridan tasodifiylik asosida tanlab olingan talabalar qism-guruhlaridan iborat bo'ladi. O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilishni tarbiyalashga qaratilgan topshiriqlardan unumli foydalanish samarali natijalarni beradi. Shu bilan birga yoshlarning umumiy madaniy saviyasining o'sishi va tarbiyalanganlik darajasining shakllanishida pedagogik treninglarning ahamiyati o'ta salmoqli ekanligini inobatga olish zarur. Pedagogik diagnostika va korreksiyalashda haqqoniylikka erishish amalda juda mushkul. Shuning uchun ahamiyatlilik darajasini tanlab tanlanmalarni tuzish bo'yicha dastlabki jiddiy sinov, tajriba, kuzatuv va hisob-kitob ishlarini olib borishni taqozo qiladi. Pedagogik diagnostika va korreksion rivojlantiriluvchi tadbirlar maqsadli belgilanib, amalga oshirilganda talabalarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining

takomillashuvida, madaniy saviyasining o'sishida va uning malakasini uzluksiz takomillashib borishiga erishiladi.

Ijtimoiy-pedagogik yo'nalish bo'lib, uning mohiyati: ichki irodaviy hislatlariga tayangan holda Shaxs sifatlarini qayta tiklash yoki korreksiyalashni nazarda tutadi. Akademik I. P. Pavlov fikricha, «... ongli, fikr mulohazali inson- o'z xohish-istaklarni jilovlay oladigan, o'z xatti-harakatlarini ma'naviy-ma'rifiy maqsadga yo'naltirgan, qonunga xilof ish qilmaydigan fuqaro hisoblanadi»(). Shu fikrdan kelib chiqqan holda, o'sib kelayotgan o'smir va o'spirinlarda quyidagi irodaviy hislatlarni shakllantirish lozim:

o'z so'zining va qilayotgan ishining egasi bo'lishga o'rgatish; jamiyatga, tevarak-atrofdagi insonlarga ziyon keltiruvchi hattiharakatlardan o'zini tiya olishga o'rgatish. Buning uchun salbiy tasnifga ega bo'lgan motivlardan saqlanish, ularni jilovlash;

hozirgi paytdagi faoliyatda asosiy va muhim narsalar (o'qish, sport bilan shug'ullanish, ishlash va h.k.lar)ga diqqatni qarata olish ko'nikmasini shakllantirish;

qonunga xilof bo'lmagan tizimli va rejali maqsadni o'z oldiga qo'ya olishni o'rgatish. Bunda ikkinchi darajali va yo'l-yo'lakay paydo bo'luvchi istaklarni asosiy maqsadga bo'ysundira olish ko'nikmalarini shakllantirish;

Iroda hamisha maqsadli va ongli regulyatsiya qila oladigan faoliyatda namoyon bo'ladi. Irodasiz, kuchsiz xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'p hollarda o'zgalar hohish-istagini bajaruvchilariga aylanib qolishadi. Shu sababli ular turli nojo'ya qiliqlar qilishga moyil bo'ladilar. Ularda irodalilik, sabr, matonat *kabi xislatlarni shakllantirish* kelajakda jamiyatda faol, axloqiy, *ma'naviy qiyofali shaxs shakllanishiga* sabab bo'ladi.

*O'quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a'zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur.*⁷

Nazorat uchu savollar.

1. Kommunikativ fazilatlarni korreksiya qilishda interfaol metodlarning imkoniyatlaridan foydalanish.
2. Korreksion faoliyat davomida "xatar guruxi"ga kiruvchi o'quvchilarni tashxis (diagnostika) qilish.
3. Pedagogik korreksiya ishini tashkil qilish texnologiyasi: fazalar va bosqichlar.
4. Pedagogik korreksiya ishini tashkil qilish texnologiyasi: fazalar va bosqichlar.
5. Pedagogik korreksiya maxsus tarbiyaviy faoliyat tizimi sifatida.
6. Pedagogik korreksiyadagi maxsus metodlar.
7. Pedagogik korreksiyadagi umumiy metodlar.
8. Pedagogik korreksiyaning asosiy vazifalari

Mustaqil ta'lim

1. Korreksion faoliyatni tashkil etishda maxsus tamoyillarning ahamiyati.
2. Diagnostikaning nazariy va emperik metodlari.
3. Pedagogik koreksiyada umumtarbiyaviy metodlar va ularni qo'llanilishi
4. Pedagogik korreksiyada ta'limning ma'lumot beruvchi metodlardan foydalanish yo'llari
5. Pedagogik korreksiyada interfaol metodlarni qo'llash yo'llari
6. Maktab o'quvchilarini pedagogik korreksiya qilishda qo'llaniladigan metodlar: mazmuni, mohiyati va qo'llash tartibi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov J.R, Umarova M.H, G'ulomova N.B, Pedagogik diagnostika va korreksiya T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018y, 128b.
2. Подласий И.П Педагогика: в 3-х кн –Москва: ВЛАДОС. 2013.
3. Talipova J.O Pedagogik kvalimetriya / o'quv qo'llanma – Toshkent 2016. 117 b.

takomillashuvida, madaniy saviyasining o'sishida va uning malakasini uzluksiz takomillashib borishiga erishiladi.

Ijtimoiy-pedagogik yo'nalish bo'lib, uning mohiyati: ichki irodaviy hislatlariga tayangan holda Shaxs sifatlarini qayta tiklash yoki korrektsiyalashni nazarda tutadi. Akademik I. P. Pavlov fikricha, «... ongli, fikr mulohazali inson- o'z xohish-istaklarni jilovlay oladigan, o'z xatti-harakatlarini ma'naviy-ma'rifiy maqsadga yo'naltirgan, qonunga xilof ish qilmaydigan fuqaro hisoblanadi» (). Shu fikrdan kelib chiqqan holda, o'sib kelayotgan o'smir va o'spirinlarda quyidagi irodaviy hislatlarni shakllantirish lozim:

o'z so'zining va qilayotgan ishining egasi bo'lishga o'rgatish; jamiyatga, tevarak-atrofdagi insonlarga ziyon keltiruvchi hattharakatlardan o'zini tiya olishga o'rgatish. Buning uchun salbiy tasnifga ega bo'lgan motivlardan saqlanish, ularni jilovlash;

hozirgi paytdagi faoliyatda asosiy va muhim narsalar (o'qish, sport bilan shug'ullanish, ishlash va h.k.lar)ga diqqatni qarata olish ko'nikmasini shakllantirish;

qonunga xilof bo'lmagan tizimli va rejali maqsadni o'z oldiga qo'ya olishni o'rgatish. Bunda ikkinchi darajali va yo'l-yo'lakay paydo bo'luvchi istaklarni asosiy maqsadga bo'ysundira olish ko'nikmalarini shakllantirish;

Iroda hamisha maqsadli va ongli regulyatsiya qila oladigan faoliyatda namoyon bo'ladi. Irodasiz, kuchsiz xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'p hollarda o'zgalar hohish-istagini bajaruvchilariga aylanib qolishadi. Shu sababli ular turli nojo'ya qiliqlar qilishga moyil bo'ladilar. Ularda irodalilik, sabr, matonat kabi xislatlarni shakllantirish kelajakda jamiyatda faol, axloqiy, ma'naviy qiyofali shaxs shakllanishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar uyushmasiga pedagogik rahbarlik sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli sinf rahbari guruhning umumiy hamda har bir a'zosining individual xususiyatlarini bilishi, ularni inobatga olgan holda jamoaga yondashishi zarur.⁷

⁷ Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahr. ostida. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 102-114-b.

Nazorat uchu savollar.

1. Kommunikativ fazilatlarni korreksiya qilishda interfaol metodlarning imkoniyatlaridan foydalanish.

2. Korreksion faoliyat davomida "xatar guruxi"ga kiruvchi o'quvchilarni tashxis (diagnostika) qilish.

3. Pedagogik korreksiya ishini tashkil qilish texnologiyasi: fazalar va bosqichlar.

4. Pedagogik korreksiya ishini tashkil qilish texnologiyasi: fazalar va bosqichlar.

5. Pedagogik korreksiya maxsus tarbiyaviy faoliyat tizimi sifatida.

6. Pedagogik korreksiyadagi maxsus metodlar.

7. Pedagogik korreksiyadagi umumiy metodlar.

8. Pedagogik korreksiyaning asosiy vazifalari

Mustaqil ta'lim

1. Korreksion faoliyatni tashkil etishda maxsus tamoyillarning ahamiyati.

2. Diagnostikaning nazariy va emperik metodlari.

3. Pedagogik koreksiyada umumtarbiyaviy metodlar va ularni qo'llanilishi

4. Pedagogik korreksiyada ta'limning ma'lumot beruvchi metodlardan foydalanish yo'llari

5. Pedagogik korreksiyada interfaol metodlarni qo'llash yo'llari

6. Maktab o'quvchilarini pedagogik korreksiya qilishda qo'llaniladigan metodlar: mazmuni, mohiyati va qo'llash tartibi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov J.R, Umarova M.H, G'ulomova N.B, Pedagogik diagnostika va korreksiya T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018y, 128b.

2. Подласий И.П Педагогика: в 3-х кн –Москва: ВЛАДОС. 2013.

3. Talipova J.O Pedagogik kvalimetriya / o'quv qo'llanma – Toshkent 2016. 117 b.

4. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. .X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahr. ostida. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 102-114-b.

6-mavzu: Pedagogik korreksiyada neyrolingivistik dasturlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi : fazalar, bosqichlari

Reja:

1.Neyrolingivistik dasturlashtirish to'g'risida umumiy tushunchalar.

2.Neyrolingivistik dasturlashtirishning asosiy tamoyillari va prinsplari.

3.Neyrolingivistik dasturlashtirishning asosiy texnikalari: langar tashlash, smart, qayta ramkalash hamda ularni amaliyotda qo'llash yo'llari.

4.Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi va texnologiyaning tayyorgarlik ko'rish fazasi.

Tayanch tushunchalar: Neyroligivistika, tamoyil, prinsip, dasturlashtirish, shaxs, texnika, smart, faza.

Har doim, har bir inson kimgadir kerak bo'lishi uchun odamlarning atrofidagi odamlarga qanday ta'sir qilishi haqidagi texnik va texnikani topishga intildi. Ma'lum darajada sirning pardasi hozirgi kunda mashhur bo'lgan neyrolingivistik dasturni ochadi. Bu odam buni monipulyatsiya qilish uchun ma'lum darajada amalga oshiradi degan fikrga asoslanadi. Neyroligivistika shakllanishi ko'pincha ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat bilan shug'ullanadi. Agar odam qanday dasturlashtirilganligini tushunsangiz, unga ta'sir qilishingiz mumkin. Shuningdek fikrlash funksiyalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda qabul qilindi. Siz odamni mutlaqo bilmasligingiz, balki uning fikrlash tarziga ta'siri tabiiy ravishda o'z jarayoniga mos keladigan tarzda ta'sir qilishingiz mumkin.

Neyrolingivistik dastur nima-Neyrolingivistik dasturlash (NLP) - asosiy tasvirlar, asosiy tasvirlar inson tafakkuri faoliyatiga zaruriy harakatlarni amalga oshirishni boshlaydi. Odatda odamlar

boshqa odamlarni boshqarish va boshqarish istagi bilan NLPga murojaat qilishadi. Aslida, psixologlar ushbu texnikaning samaradorligiga shubha qilishadi. Albatta, insonga Uning irodasiga qo'shimcha ravishda ta'sir qilish mumkin. Biroq, u erkin odam bo'lib qolishda davom etmoqda. Agar u hushyor bo'lib, hushyor turishni xohlamasa, NLP texnikasi ularga ta'sir qiladi. Dastlab neyrolingivistik dasturlash odamni o'zgartirishga qaratilgan edi. Biror kishi muvaffaqiyatga erishishi va o'z hayotini o'ziga jalb qilishi mumkin, agar u maxsus usullarni qabul qilsa va o'ziga ta'sir qila boshlasa.

Neyrolingivistik usullari: Neyrolingivistik dasturlash Bendler, Erikson tomonidan ishlab chiqilgan. Dastlab, psixiatrik amaliyotda qo'rquvlar, fobiyalar, stressli davrlarni bartaraf etish va boshqalarni, ammo NLP mustaqil ravishda ularning ongsiz ravishda ta'sirini istagan oddiy odamlar orasida mashhur bo'lgan. Neyrolingivistik dasturlash inson hayotini o'zgartirishi mumkin. Bularning barchasi odamning kuchga bog'liq. Siz qo'rquv va salbiy his-tuyg'ulardan xalos bo'lishingiz mumkin. O'zingizni qadrlashingizni ko'paytirishingiz mumkin. Siz muvaffaqiyatli muloqotning yangi ko'nikmalarini ishlab chiqishingiz mumkin. Siz muayyan hodisalarga yoki umuman hayotga bo'lgan munosabatingizni o'zgartirishingiz mumkin. Hasadgo'ylik hissi paydo bo'lishining misolida, neyrolingivistik dasturlarning harakatlari: Avvaliga bir kishi sherikning xiyonatining rasmlari bilan ta'minlangan. Ya'ni vizual kanal mavjud. Shunda odam o'zini namoyish qila boshlaydi va xiyonat paytida xo'rsinadi. Rashk (kinestetik kanal) rivojlanadi. Neyrolingivistik dasturlashda odamlar odamlarga kerakli natijaga erishgandek, haqiqiy natijalarga erishgandek ishlaydi. Bu odamga ko'plab qisqichlardan va ichki qo'rquvlardan xalos bo'lishga imkon beradi. Biror kishi hozirgi paytda eng yaxshi ta'sir ko'rsatadi va har doim yaxshi niyatlardan keladi deb ishoniladi. Salbiy natijasi yomon emas, lekin keyingi safar boshqacha harakat qilish uchun odamning imkoniyatlarini ko'rsatadi, chunki u potentsialga egadir. Neyrolingivistik dasturlash insonning ongiga ta'sir qilishdir. Dunyo har doim o'zimiz tomonidan qabul qilinadi. Ushbu jarayon turli xil omillar (tarbiya, axloqiy printsiplar, qurilmalar, hayotiy tajribalarni yo'q qilish) ta'sir qiladi. Agar siz idrok yo'lini o'zgartirsangiz,

atrofdagi voqelikni o'zgartirishingiz kerak bo'ladi. Odamlarning faoliyati ularning axloqiy qadriyatlarini va prinsiplariga olib keladi. Ushbu tushunchalar ustidan shikoyat qilish, odam unga hayot beradigan imkoniyatlardan foydalanmaydi. "Bu men uchun emas!", "Men qila olmayman!", "Men yutqazganman!" - Bunday fikrlar nafaqat o'z-o'zini hurmat qilish, balki muvaffaqiyatga erishish uchun har qanday imkoniyatni butunlay yo'q qiladi. NLPning mohiyati - bu buzg'unchilar va salbiy qurilmalarni bartaraf etishdir. Neyrolingivistik usullardan foydalanish, odamlar nafaqat muvaffaqiyatga erishadilar, balki ularning eng yaxshi fazilatlarini ham ochib berishadi.

Neyrolingivistik dasturlash tamoyillari va prinsiplari:

NLP yondashuvining tarafdorlari va izdoshlari ham ma'lum narsalarga e'tibor berishadi tamoyillari insonning shaxs sifatida samaradorligiga hissa qo'shish hisoblanadi.

Muvofiqlik (munosabat): o'zi bilan ham, atrofdagi dunyo bilan ham mavjud bo'lishi kerak. Biror narsani kimnidir o'zgartirishga urinmaslik, balki u yoki bu hodisaning mavjudligi faktini "xuddi shunday" tan olish yanada konstruktivdir.

Ko'rishlarning aniqligi (natija): biror narsaning samaradorligi (vaziyat, jarayon, yutuqlar) bilan bog'liq - u aniq bo'lishi, bir ma'noda tushunilishi va ob'ektiv bo'lishi kerak (ongda ifodalangan)

Ochiqlik va e'tibor(sezuvchanlik): natijaga erishish jarayonini anglatadi - faqat diqqatni jamlash va his-tuyg'ularingizga e'tibor, ochiq bo'lishi kerak, maqsad sari harakat borligini ko'rsatadi.

Yondashuvlardagi plastiklik(moslashuvchanlik): siz xohlagan narsaga erishguningizcha o'z harakatlarini muvaffaqiyatli o'zgartirish qobiliyati bilan bog'liq.

Neyrolingivistik dasturlash prinsipi shundaki, inson hayoti dunyoqarash va xatti-harakatlarini o'zgartirishdan muvaffaqiyatli ta'sir qilishi mumkin bo'lgan tizimli jarayonlarga bo'ysunadi. Dasturlash 5 qoidaga muvofiqdir. Odamlar har doim tashqi dunyo bilan muloqotda bo'lishadi, ma'lumot olish. Aloqa nafaqat muzokaralar, balki yuz ifodalari, imo-ishoralar va ovozlari yordamida sodir bo'ladi. Har bir insonning o'ziga xos "dunyo xaritasi", shunda atrofdagi odamlar va voqealar sodir bo'lgan voqealar baholanadi. Qanday yaxshilik, nima o'zi emas, qanday

qilib odobsiz, haqiqiy do'stlik va sevgi nima bo'lishi kerakligi va har birimiz buni o'zimiz tushunamiz. Bizning harakatlarimiz ijobiy niyatlarga ega. Agar bu yomon odat bo'lsa ham. Masalan, chekishning chuqur alomatlari keskinlikni va konsentratsiyani olib tashlash istagi hisoblanadi. Aloqa bo'lish uchun suhbatdoshning reaksiyasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Agar siz o'z sevimli mashg'ulotlarini taqsimlashingiz mumkin bo'lsa, qiziqishning reaksiyasini keltirib chiqaradi, keyin bunday aloqa hech qachon zerikarli bo'lmaydi va albatta ijobiy natija beradi. Neyrolingivistik dasturlash muayyan vaziyatda, odam o'zi uchun eng yaxshi imkoniyatlarni tanlash dasturidir.

Neyrolingivistik texnikalar: Hozirgi kunda juda ko'p turli xil NLP texnikasi mavjud. Ularning afzalligi shundaki, psixoterapiyaning boshqa yo'nalishlaridan farqli o'laroq, neyrolingivistik dasturlash usullari mustaqil ravishda qo'llanilishi va ularning samaradorligini o'zingizda his qilishingiz mumkin. Buning uchun mutaxassis bilan kichik o'quv seminari yoki hatto batafsil ko'rsatmalar yetarli. Albatta, har xil darajadagi murakkablikdagi texnikalar mavjud, ammo bu yerda biz eng qulay va ommaboplari bilan tanishamiz.

Langar texnikasi: Har birimizning hayotimizda muhim bo'lgan vaziyatlar mavjud, chunki ular bizning hayotimizga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ularni salbiy bilan bog'lash mumkin, ammo biz bormiz Ushbu holatda faqat ijobiy, baxtiyorlik tuyg'usi haqidagi xotiralarni uyg'otadigan, cheksiz baxtga qiziqadi. Bunday baxtli vaziyatlarning tasvirlari o'z-o'zidan esga olinadi, ammo jarayonni ongli va tashkiliy qilish mumkin. Xuddi shunday maqsadda "langar" xizmat qiladi. Xotiradagi eng jozibali vaziyatni tanlagandan so'ng (yaqin odam bilan uchrashish, erkinlik tuyg'usi, iliq quyosh va mayin dengiz va boshqalar) siz uni muayyan harakat bilan bog'lashingiz kerak. Bu sizning qo'llaringizni qarsak chalish, barmoqlaringizni bosish, quloq pardasini ishqalash va hokazo bo'lishi mumkin. Bu aloqa "langar" bo'ladi. Ba'zi moddiy ob'ektlar "langar" sifatida ham ishlatilishi mumkin: kalit zanjir, barmoqdagi uzuk, yodgorlik yoki tumor. Va agar bu element dastlab tanlangan vaziyat bilan bog'liq bo'lsa, undan ham yaxshiroq. Xotiraning "langar" bilan aloqasi aqliy ravishda o'zini bir necha marta

takrorlash orqali mustahkamlanishi kerak. Bu har qanday vaqtda "yoqilishi" mumkin bo'lgan shartli refleksning rivojlanishiga olib keladi, harakatni bajarish yoki "langar" sifatida tanlangan ob'ektga qarash kifoya. Biz bog'lagan vaziyat "resurs" deb ataladi - undan biz ijobiy kayfiyat, kuch va har qanday vaqtda ijobiy energiya bilan to'ldiramiz

SMART - maqsadni belgilash texnikasi: Ko'pchilikning asosiy muammolaridan biri zamonaviy odamlar- loyqa maqsadlar yoki ular haqida umuman aniq tasavvur yo'q. Shuning uchun, bu odamlar, hech narsa haqida o'ylamasdan, oqim bilan suzayotganga o'xshaydi va muammo va muammolar toshlariga ko'tarilganda juda hayratda. Maqsad - oldinga siljish uchun zarur bo'lgan mos yozuvlar nuqtasi va haqiqatan ham har qanday harakat uchun. Shuning uchun neyrolingvistik dasturlash texnikalaridan biri - SMART ni to'g'ri qo'yishni o'rganish juda muhimdir. Bu maqsadni belgilashda amal qilish kerak bo'lgan 5 ta qoidaning qisqartmasi.

S - o'ziga xoslik - aniqlik va o'ziga xoslik. Maqsadni belgilashda siz erishmoqchi bo'lgan aniq natijani aniq va batafsil ko'rsating. Shunday qilib, "men boy bo'lishni xohlayman" - bu juda noaniq va noaniq maqsad, shuning uchun u sizning faoliyatingizni rag'batlantirishga qodir emas. Lekin "Men yangi kvartira sotib olish uchun pul ishlamoqchiman" - aniqrog'i.

M - o'lchanadigan. Maqsadingizga erishish uchun qancha vaqt va qanday resurslar kerakligini aniqlang.

A - erishish mumkin - erishish mumkin va real. Maqsadga erishish imkoniyatidan xabardor bo'ling va imkonsiz narsaga intilmang. Bu sizni faqat umidsizlikka va o'zingizga bo'lgan ishonchni yo'qotishga olib keladi.

R - tegishli - sizning talablaringiz bilan bog'liqlik, moslik va moslik. Maqsad siz uchun mazmunli bo'lishi kerak va unga erishish hayotingizda yoki o'zingizda nimanidir sifat jihatidan o'zgartirishi kerak.

T - vaqt chegarasi - vaqt chegarasi. O'zingiz xohlagan narsani olish uchun qat'iy muddatlarni belgilang. Uzoq, noaniq istiqbolda yo'qolgan maqsad hech qachon faol bo'lishga turtki bo'lmaydi. Ushbu qoidalarga rioya qilish orqali siz nafaqat o'zingiz uchun mazmunli bo'lgan maqsadlarni qo'yishni o'rganishingiz,

balki ularga erishishingiz va orzularingizni amalga oshirishingiz mumkin.

Qayta ramkalash: NLP nazariyasiga ko'ra, inson uchun nafaqat ob'ektiv haqiqat, balki unga bo'lgan munosabati ham muhimdir. Bu xatti-harakatni shakllantiradigan va hissiy holatimizni belgilaydigan vaziyatni idrok etish va baholashdir. Agar biror harakatdan xafa bo'lsak sevgan kishi, keyin u haqida emas va harakatning o'zi haqida emas, balki unga bo'lgan munosabatimiz haqida. Hissiy baholash - bu biz voqelik voqealarini kiritadigan ramkaning bir turi. Ramkani o'zgartirish kifoya, va haqiqat boshqacha tarzda qabul qilinadi. Bu qayta ishlash texnikasining mohiyatidir. Frame - bu "ramka" va qayta ramkalash - bu ramkaning o'zgarishi.

N-, L-, P- qisqartmalarining "sirlari" Metodologik nuqtai nazardan, "neyro» N- miyada va butun inson tanasida sodir bo'ladigan nevrologik mexanizmlar to'plami tomonidan barcha jarayonlarning (shaxsning xatti-harakati, ko'p harakatlari bilan bog'liq) shartlanishini ifodalaydi.

«Lingvistik» L- og'zaki funktsiyalarning muhimligini ta'kidlaydi: til orqali biz harakatlarimiz va fikrlarimizni tartibga solishga, tartibga solishga, shuningdek, atrofimizdagi odamlar bilan muloqot qilishga muvaffaq bo'lamiz.

«Dasturlash»P- insonga kerakli natijaga erishish uchun o'z psixikasini (o'zini) tartibga solishga yordam beradigan muayyan dasturlar va harakat usullari mavjudligini ko'rsatadi.

Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasining mohiyati va vazifalari. Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat- inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu-yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z

tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'yin faoliyati, bu-moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu-yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, bu-rekordlarni ko'paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o'xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turadi.

Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasining mohiyati va vazifalari.

Faoliyat – bu borliqqa nisbatan faol munosabatning shaklidir, u orqali inson bilan borliq o'rtasida aloqa o'rnatiladi. Faoliyat orqali kishi tabiatga, narsalarga, boshqa kishilarga ta'sir qiladi. Ana shu xarakatlarda kishi o'zining ichki mohiyatini ochib, atrofdagi narsalarga nisbatan sub'ekt, odamlarga nisbatan shaxs rolini bajaradi. U narsalarning javob ta'sirini boshdan kechirish orqali esa kishilar narsalar, tabiat va jamiyatning haqiqiy, ob'ektiv, ichki mohiyatini bilib oladi.

Har bir oddiy ishni bajarishga qaratilgan va faoliyatning nisbatan tugallangan elementi ish – xarakat deb aytiladi. Bu keltirilgan misolimiz predmetli ish – xarakatlardir. Chunki u tashqi olamdagi u yoki bu predmetning holatini yoki xususiyatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi.

Har qanday predmetli ish – xarakat bir qancha xarakatlardan tashkil topadi. Biror faoliyatni bajarishdagi barcha xarakatlar kishi tomonidan nazorat qilinib tuzatilib boriladi. Nazorat qilish va holatlarni tuzatish qobiliyatidan mahrum bo'lgan kasallar hatto eng oddiy ish-xarakatni ham muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Ular stakanni stoldan olishda, og'izga olib kelishda xatolarga yo'l qo'yadilar.

Nazorat qanday yo'l bilan amalga oshiriladi? Bu sezgi organlari ko'rish, eshitish, muskul sezgi va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Chunki har bir ish – harakatni bajarayotganimizda barcha xarakatlarimizni ko'zimiz orqali yoki eshitish sezgimiz orqali tekshirib turamiz.

Faoliyatning texnologiyasi quyidagicha: ehtiyoj-motiv-maqсад-reja-usul-harakat-natija-xulosa

Agar hayvonlarning xatti-harakati butunlay atrof-muhit bilan belgilansa, kishining faolligi uning ilk yoshlaridanoq butun

insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga ko'ra yo'naltirib boriladi. Xatti-harakatning bu turi shu qadar o'ziga xoslikka egaki, psixologiyada atash uchun maxsus termin - faoliyat termini qo'llaniladi. Faollikning bu, alohida maxsus insoniy turining farq qiluvchi psixologik belgilari nimalardan iborat?

Bu farq qiluvchi belgilardan biri shundan iboratki, faoliyatning mazmuni tamomila uni keltirib chiqargan ehtiyoj bilan, belgilanmaydi. Basharti motiv sifatidagi ehtiyoj faoliyatga turtki berib, uni rag'batlantirar ekan, u holda faoliyatning shakllari va mazmuni ijtimoiy shart-sharoitlar, talablar va tajriba bilan belgilanadi. Masalan, kishini ishlashga undagan motiv (sabab) ovqatga nisbatan ehtiyoj tug'ilishidan ham kelib chiqishi mumkin. Lekin odam stanokni, masalan, uning ochligini bartaraf etish uchun emas, balki bu unga topshirilgan detalni tayyorlash imkonini bergani uchun ham boshqaradi. Uning faoliyati mazmuni shunchaki ehtiyoj bilan emas, balki maqsad bilan - undan jamiyat talab qilayotgan muayyan mahsulotni tayyorlash uchun belgilanadi.

Kishining nima uchun muayyan tarzda harakat qilayotgani uning nimani ko'zlab ish qilayotganiga mos kelmaydi. Uni faoliyatga undovchi xohish-istaklar, sabab bilan ushbu faoliyatni yo'naltiruvchi bevosita maqsad bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Binobarin, faoliyatning birinchi farqli belgisi shundan iboratki, u faollik manbai bo'lgani ehtiyoj sifatida yuzaga chiqqan holda faollikning yo'naltiruvchisi bo'lgan anglanilgan maqsad bilan bashqariladi. K. Marks faoliyatning ushbu eng muhim belgisini qayd etarkan, shunday deb yozgan edi: «O'rgimchakning ishi to'quvchining ishini eslatadi, asalari ham mumdan uya yasab, ba'zi kishilarni - me'morlarni uyatga qoldiradi. Lekin eng yomon me'mor ham eng yaxshi asalaridan avvalo shu bilan farq qiladiki, u mumdan uya yasashdan oldin, bu uyani miyasida ko'radi. Mehnat protsessining oxirida bu protsess boshlanmasdan oldinoq kishining tasavvurida, ya'ni fikran mavjud bo'lgan natija hosil bo'ladi. Kishi asalaridan tabiat bergan narsaning formasini o'zgartirish bilangina farq qilib qolmaydi; tabiat bergan narsada u o'z ongli maqsadini ham amalga oshiradi, bu maqsad, qonun sifatida, kishining ish usulini va bu ishning xarakterini belgilab beradi va kishi o'z irodasini ana shu maqsadga bo'ysundirishi lozim». Lekin yuqorida

keltirgan so'zlarida faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishining yana bir muhim belgisini qayd etadi. Faoliyat muvaffaqiyatli bo'lishi uchun psixika narsalarning xususiy ob'ektiv xossalarini aks ettirishi va ular bilan (organizmning ehtiyojlari bilan emas) oldiga qo'yilgan maqsadga erishish usullarini ham belgilab berishi lozim. Va nihoyat, faoliyat kishining xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro'yobga chiqarish, xususan olganda esa yuzaga kelgan ehtiyojlarni, o'zicha zudlik bilan qondira olmaydigan, ya'ni bevosita maqsadga tayanmaydigan faollikni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash imkonini beradigan darajada boshqarishga qodir bo'lishi kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, faoliyat bilish va iroda bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, ularga tayanadi, bilish va irodaviy jarayonlarsiz yuz berishi mumkin emas.

Demak, faoliyat - kashining anglanilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir. Shunday qilib, faoliyat haqida gapirish mumkin bo'lishi uchun kishi faolligida anglanilgan maqsadning mavjudligini aniqlash lozim. Faoliyatning barcha qolgan jihatlari - uning motivlari, bajarilish usullari, tegishli axborotni tanlash va qayta ishlash anglanilgan bo'lishi ham, anglanilmagan bo'lishi ham mumkin. Ular shuningdek, chala-yarim tarzda anglanilgan va hatto noto'g'ri anglanilgan bo'lishi ham mumkin.

Masalan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bola uni o'ynashga majbur qiladigan ehtiyojni kamdan-kam tarzda anglab yetgani kabi kichiq yoshdagi maktab o'quvchisi o'z o'qish faoliyatining motivlarini anglamagan holda ish ko'radi. Intizomsiz o'smir o'z xatti-harakatlarining haqiqiy motivlarini chala-yarim va ko'pincha noto'g'ri anglaydi. Hatto katta yoshdagi odamlar ham o'zlarining noto'g'ri va nomunosib xatti-harakatlari va qiliqlarini oqlash uchun ularga ikkinchi darajali, «niqoblangan» motivlarni to'g'ri deb da'vo qilishadi. Faqat motivlar emas, balki faoliyatning u yoki bu rejalarini tanlashga olib kelgan ko'pgina fikrlash jarayonlari ham kishi tomonidan to'la-to'kis anglanilgan bo'lavermaydi. Faoliyatni amalga oshirishning usullariga kelganda shuni aytish kerakki, ularning ko'pchiligi odatda ongdan tashqari holda yo'naltiriladi. Bunga odatlanib qolingani har qanday harakat: yurish, so'zlash, xat

yozish, avtomobilni boshqarish, musiqa asbobida kuy chalish va shu kabilar misol bo'lishi mumkin.

Faoliyatning ana shu barcha jihatlarida aks etish darajasi va to'laqonliligi tegishli faoliyatning anglanilganligi darajasini belgilaydi.

Faoliyatning anglanganligi darajasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, maqsadni anglash hamisha uning muqarrar belgisi bo'lib qolaveradi. Ushbu belgi bo'lmagan hollarda kishi tushunchasidagi faoliyat ham bo'lmaydi, balki impulsiv (beixtiyor) xatti harakat yuz beradi. Faoliyatdan farqli o'laroq, impulsiv xatti-harakat bevosita ehtiyojlar va hissiyot bilan idora qilinadi. U individning qattiq hayajonga tushishi (affekti) ni ifoda etadi va shuning uchun ham ko'pincha egoistik va jamiyatga zid xarakterga ega bo'ladi. Jumladan, g'azabli yoki to'xtatib bo'lmaydigan darajada ehtirosiga berilgan kishi impulsiv harakat qiladi.

Xatti-harakatning impulsivligi uning anglanilmaganligi degan ma'noni bildirmaydi. Lekin bu holatda kishi shaxsiy motivining maqsadda ifodalangan ijtimoiy mazmuni emas, balki faqat uning shaxsiy motivi anglanilgan bo'ladi, o'sha motiv uning xatti-harakatini yo'naltiradi.

Tashqi (amaliy) va ichki (aqliy) harakatlar. Har qanday predmetli ish – bir qancha harakatlardan tashkil topadi. Biror faoliyatni bajarishdagi barcha harakatlar kishi tomonidan nazorat qilinib tuzatilib boriladi. Nazorat qilish va holatlarni tuzatish qobiliyatidan mahrum bo'lgan kasallar xatto eng oddiy ish-harakatni ham muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Ular stakanni stoldan olishda, og'izga olib kelishda xatolarga yo'l qo'yadilar.

Texnologiyaning tayyorgarlik ko'rish fazasi. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasining fazasi. Tayyorgarlik ko'rish fazasi, bevosita korreksiya fazasi hamda korreksiya ishlarini yakunlash fazasini o'z ichiga oladi. Ushbu fazalarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lgan ketma-ketlikda joylashgan tarkibiy qismlardan iborat. Korreksion tadbirlar, o'z navbatida bosqichma-bosqich va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etiladi. Odatda pedagogik korreksiyada shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirish texnologiyasini pedagog hamda o'quvchi o'rtasidagi mavjud ijtimoiy to'siqlarni kamaytirishdan boshlanishi (agar shunday

to'siqlar mavjud bo'lsa, albatta) maqsadga muvofiq hisoblanadi. **Tayyorgarlik ko'rish fazasida** korreksion-rivojlantiruvchi faoliyatni o'tkazish qay darajada zarur va maqsadga muvofiq ekanligini aniqlab olish kerak bo'ladi. Buning uchun shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, uning xulqidagi bartaraf qilinishi kerak bo'lgan illatlar va o'zgartirilishi kerak bo'lgan sifatlar, mazkur tadbirlardan kutiladigan natija, o'quvchining bo'lajak o'zgarishlarga tayyorligi hamda korreksion faoliyatni olib borish yo'nalishi majmuaviy diagnostika natijalariga asoslanib aniqlanishi kerak bo'ladi. O'quvchilarni majmuaviy diagnostika qilish ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Ba'zi pedagog-o'qituvchilar o'z o'quvchilarini o'rganishlari uchun hech qanday maxsus tadqiqotlarning keragi yo'q, deb hisoblaydilar. Biroq masalaga bunday yondashish o'qituvchilarning o'z o'quvchilari to'g'risida faqatgina yuzaki ma'lumotlarga ega bo'lishlarini ta'minlashi mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Neyrolingivistik dastur nima?
2. Neyrolingivistik dasturlashni inson hayotidagi ahamiyati qanday?
3. N-, L-, P-qisqartmalarining "sirlari"
4. Faoliyatning texnologiyasi nimadan iborat?
5. Neyrolingivistik texnikalar nimalardan iborat?
5. Langan texnikasi haqida
6. SMART-maqsadni belgilash texnikasi haqida.
7. Qayta ramkalash texnikasi haqida.
8. Texnologiyaning tayyorgarlikko'rish fazasi.

Mustaqil ta'lim

1. Pedagogik korreksiyaning individual shaklda tashkil etish: "Tushuntiruvchi suhbat" metodikasi mazmuni, mohiyati va qo'llash tartibi
2. Ijtimoiy-pedagogik treninglar: mazmuni, mohiyati va qo'llash tartibi
3. Pedagogik korreksiyada neyrolingivistik dasturlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish

4.Neyrolingivistik dasturlashtirish to'g'risida umumiy tushunchalar

5.Neyrolingivistik dasturlashtirishning asosiy texnikalari: langar tashlash, smart, qayta ramkalash hamda ularni amaliyotda qo'llash yo'llari

6.Reprezentativ tizimlar va afzal ko'riladigan reprezentativ tizimni aniqlash. Moddaliklar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov J.R, Umarova M.H, G'ulomova N.B, Pedagogik diagnostika va korreksiya T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018y, 128b

2. Подласий И.П Педагогика: в 3-х кн –Москва: ВЛАДОС. 2013

3. Talipova J.O Pedagogikkvalimetriya / o'quvqo'llanma – Toshkent 2016. 117 b

4. Педагогика. Изохли lug'at / Ў.Асқарова, М.Усмонбоева, Х.Рахматова, Ф.Эҳсонова, Ф.Асқарова. – Наманган: НамДУ, 2014. – 192-б.

5. Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova, M.Usmonboeva, X.Raxmatova, F.Ehsonova, F.Asqarova – Namangan: NamDU, 2014.

7-mavzu : Pedagogik diagnostika va korreksiyanı samarali tashkil etish va umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarini ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish.

Reja:

1. Ta'lim muassasida pedagogik diagnostika va korreksiya faoliyatini tashkillashtirish yo'llari.

2. Pedagogik korreksiyanı samarali tashkil etishning shart-sharoitlari.

3. O'quvchi- qizlarnı ijtimoiy faolligini oshirish-pedagogik muammo sifatida.

4. O'quvchi- qizlarnı ijtimoiy faolligini oshirishni aniqlashtirishda anketalashtirish, suhbat, pedagogik kuzatish, sotsiometriya metodlaridan foydalanish yo'llari.

Tayanch soʻz va iboralar: diagnostika, korreksiya, anomal, pedagogik muammo, anketalashtirish, suhbat, pedagogik kuzatish, metod, sotsiometriya, ijtimoiy faollik, faoliyatni tashkillashtirish.

Oʻquv –tarbiyaviy jarayonni optimallashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika har bir rejali oʻquv faoliyatining ajralmas boʻlagi sanaladi. Oʻquvchilar materialni qanday oʻzlashtirayotganini hamisha kuzatib borish, tarbiyaviy jarayondagi muammolarning yechimini topishga yordam beradi. Pedagogik diagnostika yordamida oʻquv –tatbiya jarayonidagi muammolar bartaraf qilinadi. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida pedagogik tashxislash va korreksiyalashning mazmunini oʻquvchilarda aqliy, intellektual qobiliyatlarini, ijobiy qarash va eʼtiqodlarini, axloqiylik, irodalilik va hissiyotlarini shakllantirishdan iborat.

Oʻquvchilarning globallashuv jarayonida maʼnaviy tahdidlarni farqlay olishlari, fikrga qarshi fikr, gʻoyaga qarshi gʻoya bilan kurash olib borish lozimligini, inson qalbiga yoʻl topish, maʼnaviy kamolot ekanligi, mamlakat ravnaqi yoʻlida fidoyilik, jasorat ekanligini anglab yetishi uchun barcha pedagogik metodlardan foydalanish lozim. Pedagogik diagnostika taʼlim jarayoni sifatini loyihalashtirish, unga erishish va qoʻllab-quvvatlash hamda uni amalga oshirish yoʻllarini oʻrganadi, natijalarini tashxislaydi. Bu jarayonda taʼlim sifatini taʼminlash, zamonaviy yondashuvlarining asosiy negizi- turli xil boshqa, innovatsiya va axborot texnologiyalarini taʼlimga joriy etish xam amalga oshiriladi. Boʻlajak kasbni tanlash uchun oʻquvchilarni maktab davridanoq kasb egallashga boʻlgan qiziqishlarini orttirish, ularning irsiy va kasb tanlashga boʻlgan hohishini oʻrganish - zamonaviy pedagogik diagnostika metodlariga murojaaaat etishni talab etadi Oʻz kasbini sevgan inson ijodkorlikka intiladi, yangilik yaratishga qodir boʻladi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yoʻqotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yoʻnaltirilgan boʻlmay, balki umumiy rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, yetarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega.

Anomal (yunoncha anomalos — noto'g'ri) bolalarga jismoniy yoki psixik nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Bolaga korreksion ta'sir ko'rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funksiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning yoshi, nuqsonlar o'rmini to'ldirishga imkon beruvchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog'liq. Anomal bolalarning ma'lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta'sirga muhtoj bo'lsalar, boshqa guruhlari ularga esa davolash- sog'lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab etadi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir.

Jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim- tarbiya sohasida to'plangan ma'lumotlar, tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish, hayotga tatbiq etish ehtiyojlari orasidagi hamkorlik pedagogikasi rivojlanmoqda.

Pedagogik diagnostika o'quvchi shaxsidagi o'ziga xos xususiyatlari, individuallikni saqlagan holda intellektual, ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi.

Uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bola shaxsini rivojlantirishda majburiy ta'limga o'rin bo'lmasligi kerak, ya'ni bola o'zida o'qishga qiziqish, motivatsiya hosil qilishi lozim

- o'quv materialini to'liq idrok etish uchun taqdim qilinayotgan ma'lumotga oid tayanch iboralar, chizma va tasvirlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi

- o'quv materialini idrok etishda tanlash xususiyatining mavjudligi dialog shaklida tashkil qilingan darslar g'oyasi

- intellektual rivojlanishi deyarli bir xil bo'lgan guruh, sinf jamoalarini tashkil qilish

- o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini rivojlantirish g'oyasi

- o'qishdan bo'sh vaqtni mazmunli rejalashtirish.

Ta'lim jarayonini diagnostikasiz boshqarish mumkin emas. Ta'lim diagnostikasi ko'p hollarda yosh avlodda u yoki bu hislatlarni (chidamlilik, iroda, qunt va boshqalar) ham aniqlaydi. Diagnostika odatdagi an'anaviy o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini tekshirishdan farq qiladi. Diagnostika natijalarib unga erishish yo'llari, vositalari bilan bog'liq holda ko'rib chiqadi.

Diagnostika o'z ichiga nazorat, tekshiruv, baholash, statistik ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, dinamikani ko'rsatish, voqealarning keyingi rivojini bashorat qilish kabilarni qamrab oladi. Ko'pchilik ota-onalar o'z bolalarining intellektual rivojlanishlarini boshqa bolalar bilan solishtirib ko'rishadi. Psixolog, tibbiyot xodimlaridan maslahat so'rashadi. Lekin pedagogik diagnozga, mutaxassisning tashxisiga kamdan-kam murojaat etishadi.

Pedagogik diagnostika o'quv tarbiyaviy ishlarning yakuniy natijalar ko'rsatkichlarini hamda mazkur jarayonning kechish holatini yaqqol aks ettirish xususiyatiga ega. Pedagogik diagnostikani amalda qo'llashda turli metodlardan foydalaniladi.

Metod (yun. "methodos" — usul) — ta'lim (tarbiya) maqsadiga erishishning yo'li, usuli; "doimiy ravishda rivojlanib va shaklan o'zgarib boradigan usul yoki uslublar, usullar va qadamlar, harakatlar".

* Metod, metodologiya, metodika, instrument // https://studme.org/144026/psihologiya/metod_metodologiya_metodika_instrument.

Pedagogik diagnostikani tashkil qilishda beriladigan nazariy bilimlarni yoshlar qalbiga yetkazish, ularni kundalik ehtiyojiga yo'naltirish uchun quyidagi ish usullariga e'tibor berish lozim:

- -o'quv muassasa, mas'ul shaxslar sinf, guruh jamoasining ruhiy holati, ya'ni har bir shaxsning faoliyati, qiziqish darajasiga;
- -o'quvchi-yoshlarning tartib-intizomiga, davlat mulkiga bo'lgan munosabatiga;
- -o'quvchi-yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligiga;
- -yoshlar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarga bo'lgan munosabatiga (ijobiy, salbiy, befarqligiga);
- -yoshlarning kattalar, o'z tengdoshlari bilan axloqiy muomala va munosabatlariga;
- -o'quv maskanlarida tashkil etilgan qonun-qoidalariga munosabat va ularga amal qilishga;
- -o'quv muassasadagi ijtimoiy fikrga bo'ysunuvchanligiga.

Yuqoridagilarga amal qilinganda pedagogik diagnostikani o'tkazish Pedagogik diagnostika o'quv tarbiyaviy ishlarning yakuniy natijalar ko'rsatkichlarini hamda mazkur jarayonning kechish holatini yaqqol aks ettirish xususiyatiga ega. Pedagogik diagnostikani amalda qo'llashda turli metodlardan foydalaniladi.

Tajribalar ko'rsatishicha, o'quvchi-yoshlarning markaziy nerv sistemasidagi psixik qo'zg'alish kuchiga qarab, umumiy ta'limiy-tarbiyaviy jarayonga kirishish faolligini aniqlash mumkin.

Kuchsiz nerv sistemasiga mansub o'quvchi-yoshlarda sezgirlik chegarasi o'ta nozikligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli ular zarracha ahamiyatga molik bo'lmagan psixotravmatik ta'sirlarga ham uzoq muddat davomida qayg'urib yurishadi. Pedagogik tashxislashda va korreksiyalashda shu jihatlarga alohida e'tibor berish joizdir.

O'spirin va o'smirlarning «kuchli nerv sistemi»ga mansubligi qo'yidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi:

1. O'z faoliyatidagi intensivlik va mahsuldorlikni yo'qotmagan holda uzoq muddat mobaynida u darajada qiziqarli bo'lmagan topshiriqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lishlan;
2. Ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf qila olish, maqsadga erishish yo'lidagi qaysarlik xususiyatlarining mavjudligi;
3. Mushkul vaziyatlarda ish mahsuldorligi va qat'iyatligining oshishi (ayniqsa xavfli vaziyatlarda);

4. Xatti-harakatlari va xulq-atvorida mustaqillikka intilish xususiyatlarining mavjudligi, ayniqsa yangi, notanish vaziyatlarda ularning kashf qilinmagan

Sotsiometriya metodi.

Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Jon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatida, kim bilan qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatishlari guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi.

Umuman aytganda, sotsiometriya metodidan turli yoshdagi, kasbdagi, jinsdagi, saviyasi har xil kishilar guruhlaridagi psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar va yondashuvlarni tadqiq etishda unumli foydalansa bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Pedagogik diagnostika va korrektsiyaga ta'rif bering?
2. O'quvchiarning faolligini oshirishda qanday metodlardan foydalanish mumkin?
3. Anketalashtirish, suhbat, pedagogik kuzatish, sotsiometrik metodlari haqida ma'lumot bering.
4. O'quvchi qizlarni faolligini oshirishdagi muammolar nimada?
5. Sotsiometrik metod haqida gapirib bering.
6. Pedagogik diagnostikaning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini so'zlab bering.
7. Pedagogik korrektsiyani tashkil etishning samarali yo'llari qanday?
8. Anketalashtirish metodidan o'quvchilarning faolligini oshirishda qay tariqa foydalaniladi

Mustaqil ta'lim

1. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi: mazmuni, mohiyati va qo'llash tartibi
2. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasining asosiy fazasi

3. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasining yakuniy fazasi.

4. Ta'lim muassasida pedagogik diagnostika va korreksiya faoliyatini tashkillashtirish yo'llari

5. Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarini ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish

6. O'quvchi-qizlarni ijtimoiy faolligini oshirishni aniqlashtirishda anketalashtirish, suhbat, pedagogik kuzatish, sotsiometriya metodlaridan foydalanish yo'llari.

7. O'quvchi-qizlarni ijtimoiy faolligini oshirish-pedagogik muammo sifatida

8. Pedagogik korreksiyaning samarali tashkil etishning asosiy shart-sharoitlari

9. Pedagoglarni diagnostik va korreksion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi: mazmuni, mohiyati va qo'llash tartibi

Asosiy adabiyotlar

1. G'ulomov J.R, Umarova M.H, G'ulomova N.B, Pedagogik diagnostika va korreksiya T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018y, 128b

2. Подласий И.П Педагогика: в 3-х кн –Москва: ВЛАДОС. 2013

3. Talipova J.O. Pedagogik kvalimetriya / o'quv qo'llanma – Toshkent 2016. 117 b

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 227-b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. – 14-b

6. Mirziyoyev SH. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi BMning 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017-yil 16 yanvar №11

7. Аллан Пиз. Язык телодвижений или как читат мысли других людей по их жестам. –М: "Ай-ко" 1995-25б

8. Голиш Л.В Саидова Д.Т Тренинг – форма оперативного повышения

9. Ганеев А.Д Основы коррекционной педагогики Учебное пособие для студентов высш. Пед. Уч. Заведений /Под ред. В.А Сластенина-М: Академия, 2001 280-с

10. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика / перевод с немецкого-М 1991.

Axborot manbalari

9. www.tdpu.uz

10. www.Pedagog.uz

11. www.ziyonet.uz

12. www.edu.uz

13. www.obr-nauka.muhr.ru/content.doc

14. Metod, metodologiya, metodika, instrument // https://studme.org/144026/psihologiya/metod_metodologiya_metodika_instrument.

II BOB. "TARBIYA DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI" FANINING AMALIY MASHG'ULOT ISHLANMALARI

1-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Tarbiya diagnostikasi va korreksiya fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari

Reja:

1. Tarbiya diagnostikasi va korreksiya fanining shaxs rivojlanishidagi o'rni.
2. Tarbiya diagnostikasi va korreksiya fanining predmeti va asosiy funksiyalari

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga diagnostika va korreksiya haqida tushuncha berish, bilim, ko'nikma, malakalarini qo'llay olish, fikr almashishini kengaytirish, o'z ustida ishlashi, nazorat qilish, turli xil metodlar va yangi usullardan foydalanish, yangi g'oyalarni o'ylab topishni va ularni qo'llay olishni o'rgatish.

Ta'lim metodlari: SINKVEYN, Venn diagrammasi, BBB.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, markerlar, majmua va qo'llanmalar, tarqatma materiallar, ko'rgazmalar, topshiriqlar.

Kutilayotgan natija:


Talabalar o'z bilimlarini sinagan holda bir-birlari bilan muzokara qilish, amaliyot jihatdan bilib borishi, diniy va dunyoviy ilmni oshirishi, o'z bilimlarini mustahkamlash, yangi usul va uslublar kashf qilish, bilim, ko'nikma, malakalarini namoyon qila olishi, muammoli vaziyatlar yechimini topishdagi masalalarga oydinlik kirita bilishi uchun yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishadi.

Egallangan bilimlarni turli xildagi ta'lim metodlari orqali mustaxkamlab olishadi.

1-topshiriq. "SINKVEYN" metodidan foydalangan holda tarbiya diagnostikasi va korreksiya fanining mazmuni ta'riflang.

- Bitta ot _____
Ikkita sifat _____
Uchta fe'l _____
Ibora _____
Xulosa _____

2-topshiriq. Diagnostika va korreksiyaning farqli jihatlarini klaster metodi orqali ifodalang.



3-topshiriq. Tarbiya diagnostikasi va korreksiya fanining shaxs rivojlanishidagi o'rni haqida egallagan BBB texnologiyasi orqali ifodalang.

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xohlayman

2-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Pedagogik diagnostika metodlari.

Reja :

1. Testlar, ularning turlari qo'yiladigan asosiy talablar.
2. So'rov metodi turlari, shakllari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga testlar, ularning turlari qo'yiladigan asosiy talablar haqida ma'lumotlar berish va ularni So'rov metodi turlari, shakllari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish. Pedagogik diagnostikaning test, so'roqlash va kuzatish metodlari bor. Test

pedagogik diagnostika metodlari orasida eng qulay hisoblanib, u bir jihatdan sifatli ma'lumot berishi bilan ajralib turishini o'rgatish.


Ta'lim metodlari: klaster metodi, qor bo'ron ,yechim daraxti.

Ta'lim vositalari: tayanch matn, markerlar, tarqatma materiallar, topshiriqlar.

Kutilayotgan natija: Talabalar pedagogik diagnostikaning tadqiqot metodlari haqida umimiy ma'lumotga va pedagogik diagnostika metodlarini amalda qo'llash to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishadi.


Egallangan bilimlarni turli xildagi ta'lim metodlari orqali mustaxkamlab olishadi.

1-topshiriq. Pedagogik diagnostika metodlarini klaster metodi orqali ifodalab bering



2-topshiriq. Pedagogik diagnostika metodlari va ularning turlari haqida olgan bilimlarni mustahkamlash uchun "qor bo'ron" metodidan foydalanamiz. Bunda guruh talabalari ikkita kichik guruhlariga bo'linib mavzudan kelib chiqqan holda bitta- bittadan ma'lumot berishadi. Har bir guruh talabalari ma'lumot berishganidan keyin bitta qog'ozni qor shaklida yumalab qo'yishadi. Keyin oxirida har bir guruhning yumaloqlangan qog'ozlari ya'ni qorlari sanaladi va qaysi guruh g'olib bo'lib qaysi guruh mag'lub bo'lgani aytiladi.

3-topshiriq. Pedagogik diagnostikaning ayni paytda test metodi ta'limiy xulosalar bilan birga texnologik vaziyatni, istiqbolni, harakat yo'nalishini ham belgilab beradigan turlarini " yechimlar daraxti " nomli metod orqali ifodalang



3-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Pedagogik diagnostika o'quvchilar yosh xususiyatlari.

Reja :

1. Pedagogik diagnostika o'quvchilar yosh xususiyatlarining o'ziga xosliklari.

2. Maktab o'quvchilarini pedagogik diagnostika qilish metodlari ularning turlari qo'llanilishidagi asosiy talablari.


Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga pedagogik diagnostika haqida tushuncha xosil qilish va uni o'rgatish. Pedagogik diagnostikada o'quvchi shaxsi pedagogik diagnostika obyekti sifatida qaratiladi. Ta'lim muassasadagi ta'lim – tarbiya sifati, moddiy–texnika bazasining mustahkamligi, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya vositalari va o'qitishning zamonaviy metodlaridan, innovatsiyalardan samarali foydalanilayotgani o'quvchi shaxsini kamol toptirishga qaratiladi va o'quv dargohining bilim o'chog'i degan maqomga munosibligini ko'rsatadi.

Ta'lim metodlari: Yalpig'ich, savol-javob, aqliy hujum, venn diagrammasi, nima uchun?

Ta'lim vositalari: tayanch matn, tarqatma materiallar, ekspert topshiriqlar.


Kutilayotgan natija: Talabalar pedagogika diagnostika ma'lumotga ega bo'lishadi. Egallangan bilimlarni turli xildagi ta'lim metodlari orqali mustaxkamlab olishadi. Maktab o'quvchilarini pedagogik diagnostika qilish metodlari ularning turlari qo'llanilishidagi asosiy talablari haqida bilimlarga ega bo'ladilar.

1-topshiriq. Pedagogika diagnostikasi Funktsiyalari yelpig'ich metodi orqali ifodalab bering.




2-topshiriq. Pedagogika va pedagogik diagnostikani Venn diagrammasi orqali ifodalang.

Pedagogika diagnostikasi funksiyasialari.



3-topshiriq. Pedagogik diagnostika mavzusidan egallagan bilimlaringizni nima uchun? texnologiyasi orqali ifodalang.



4-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Pedagogik korreksiyaning maqsadi, vazifalari .

Tamoyillari va metodlari

Reja:

1. Pedagogik korreksiyaning mazmuni, maqsadi va vazifalari.
2. Pedagogik korreksiyaning amaliyotda qo'llanilishida rioya qilinadigan asosiy umumpedagogik va maxsus tamoyillar.
3. Maktab o'quvchilarini pedagogik korreksiya qilishda qo'llaniladigan metodlar. **Amaliy mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarga pedagogik korreksiya fanining maqsadi-pedagogik ahamiyatga ega ma'lumotlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, tarbiyalash, o'quv hamda kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan samarali tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat ekanligi haqida ma'lumot berish va ularni pedagogik korreksiyaning tamoyillari -pedagogik korreksiyaning mazmuni, maqsadi, ijtimoiy-didaktik, tarbiyaviy ahamiyati, qonuniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, uni qo'llash shartlarining mohiyatini yorituvchi yetakchi g'oyalarning ahamiyatli jihatlari bilan tanishtirish. Maktab o'quvchilarini pedagogik korreksiya qilishda qo'llaniladigan metodlar bilan tanishtirish. Maxsus individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan

bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini va kelib chiqishini o'rgatish.

Ta'lim metodlari: Uch bosqichli intervyu, galeriyani aylanish, baliq skeleti metodi.

Ta'lim vositalari: Chizg'ich, marker, tarqatma materiallar, rangli qalamlar.

Kutilayotgan natija: Talabalar pedagogik korreksiyaning maqsadi, vazifalari va asosiy tamoyillari haqida umumiy va aniq ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi haqida bilimlarga ega bo'ladilar.. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega bo'ladi. Pedagogik korreksiyaning 10 ta tamoyili bilan yaqindan tanishib oladilar. Amaliy mashg'ulot jarayonida o'tkazilgan metodlar yordamida talabalarda nutq madaniyati to'g'ri shakllanadi va ularda rahbarlik, liderlik qobiliyati shakllanadi. Egallangan bilimlarni turli xildagi ta'lim metodlari orqali mustaxkamlab olishadi.

1-topshiriq. Pedagogik korreksiyaning maqsadi, vazifalari va tamoyillari haqidagi bilimlaringizni "Uch bosqichli intervyu" metodi yordamida yoritib bering.

1.....


2.....

3.....

2-topshiriq. Pedagogik korreksiyaning mazmuni, maqsadi va vazifalari bo'yicha egallagan bilimlaringizni "Galeriyani aylanish" metodi yordamida 2 ta guruhga ajralgan holatda ifodalab bering.

P.s O'qituvchi tomonidan ikkala guruhga bir xil savol beriladi. Guruhlar savolning javobini varaqga yozishadi va javoblarni birlari bilan almashtirib yozilgan javobning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aytishadi. Agar guruhlar to'liq javob bermagan bo'lsalar qo'shimcha ma'lumotlar kiritib baxs munozara yuritishlari mumkin.

3-topshiriq. Baliq skletidan foydalangan holda pedagogik korreksiya metodlari haqida ma'lumot yozing.



5 - amaliy mashg'ulot

Mavzu: Pedagogik korreksiyaning tashkil etish shakllari va neyrolingivistik dasturlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish.

Reja:

1. Pedagogik korreksiyaning individual va guruhli shaklda tashkil etish.
2. Neyrolingivistik dasturlashtirishning asosiy tamoyillari. Reprezentativ tizimlar va afzal ko'riladigan representativ tizimni aniqlash.
3. Neyrolingivistik dasturlashtirishning asosiy texnikalari: langar tashlash, submodol taxrirlash, xulq-atvor senariysini o'zgartirish hamda ularni amaliyotda qo'llash yo'llari.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga pedagogik korreksion faoliyat haqida ma'lumot berish. Pedagogik korreksiyaning individual va guruhli shaklda tashkil etish to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish. Ularga Neyrolingivistik dasturlash individual odamlar tomonidan o'ziga xos hayotiy tajribasini tuzishning o'ziga xos modelini, neyrolingivistik dasturlash foydalanishning asosiy nazariy, amaliy jihatlarini o'rgatish. Bu atamaga kiritilgan so'zlarning ma'nosiga asoslanib, pedagogik bilimlarni, "Neyro" so'zi odamning xulq-atvori ko'rish, ta'm va hidni sezish, teginish, eshitish, sezish kabi nevrologik jarayonlardan kelib chiqishini o'rgatish.

Ta'lim metodlari: Yalpiz'ich metodi, konseptual jadval metodi, baliq skeleti metodi.


Ta'lim vositalari: Tayanch matn, markerlar, tarqatma materiallar, topshiriqlar.

Kutilayotgan natija:


Talabalar mavzusi ma'lumotga ega bo'ladilar. Talabalar o'z his-tuyg'ularini atrofdagi dunyoni idrok etish, o'rgatish, o'zgartirish haqida ma'lumotga ega bo'lishadi, o'z shaxsiy hissiy taassurotlar, individual tajribadan qo'llay olish haqida ma'lumotga ega bo'lishadi, neyrolingvistik dasturlash asoslari - xulq-atvor tizimi ekanini bilib olishadi, pedagogik neyrolingivistikada ankraj, submodallikni tahrirlash, burilish usullari, obsesif, muammoli, fob holatlar bilan ishlash haqida ma'lumotga ega bo'lishadi.

Egallangan bilimlarni turli xildagi ta'lim metodlari orqali mustahkamlab olishadi.

1-topshiriq. Pedagogik korreksiyaning tashkil qilish shakllarini konseptual jadval metodi asosida taqqoslang.



2-topshiriq. Pedagogik neyrolingivistikani neyrologik jihatlarini yelpig'ich metodi orqali ifodalab bering.



3-topshiriq. Neyrolingivistik dasturlashning asosiy tamoyillarini kungaboqar texnologiyasi orqali ifodalang.



6-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Shaxs faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik diagnostika va korreksiyaning tashkil etish texnologiyasi.

Reja :

1. Texnologiyaning tayyorgarlik ko'rish fazasi.
2. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasining asosiy yakuniy fazasi.
3. Ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostika va korreksiya faoliyatini tashkillashtirishning yo'llari.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirishning asosiy vazifalari: ustuvorlik va rollarni aniqlash, maqsadga erishish yo'lida to'siqlarni aniqlash; o'z resurslarini tahlil qilish va haqiqiy imkoniyatlarni aniqlash; maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishning asosiy usullarini

aniqlash; shaxsiy o'sish va samaradorlikni oshirish uchun bosqichma-bosqich rejani amalga oshirish usullarini o'rgatish. Ta'lim muassasalarida pedagogik diagnostika va korreksiya faoliyatini tashkillashtirishning yo'llarini o'rgatish.

Ta'lim metodlari: savol-javob, nima uchun, kungaboqar, aqliy hujum.

Ta'lim vositalari: tayanch matn, markerlar, tarqatma materiallar, topshiriqlar.

Kutilayotgan natija: Talabalar Pedagogik korrektsiyaning asosiy fazasida bevosita korrektsion- yo'naltiruvchi ish o'tkazilib, u quyidagi ketma-ketliklardan bilib oladilar: O'quvchi bilan birgalikda mavjud muammo yoki muammoli vaziyatni tahlil qilish. Muammoni ratsionallashtirish, ya'ni maqsadga muvofiq yechim yo'lini ko'rib chiqib eng optimal yechim yo'lini tanlash. Korrektsiyaning shakl hamda metodlarini tanlash va o'tkazishda o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Talabalarga shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirishning asosiy vazifalari: ustuvorlik va rollarni aniqlash, maqsadga erishish yo'lida to'siqlarni aniqlash; o'z resurslarini tahlil qilish va haqiqiy imkoniyatlarni aniqlash; maqsadlarga erishish va vazifalarni bajarishning asosiy usullarini aniqlash; shaxsiy o'sish va samaradorlikni oshirish uchun bosqichma-bosqich rejani amalga oshirish kabi ma'lumotlarga va pedagogik diagnostika va korrektsiyaning samarali tashkil etish haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Talabar egallagan bilimlarini turli xildagi ta'lim metodlari orqali mustahkamlab olishadi. Pedagogik diagnostika asosida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, diagnostik-korreksion faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish malakalariga ega bo'lishadi. Egallangan bilimlarni turli xildagi ta'lim metodlari orqali mustahkamlab olishadi.

1-topshiriq. "Nima uchun?" metodi orqali quydagi savollarga javob bering.

shaxs faoliyatini
takomillashtirish to'g'risida
tushunchaga ega bo'lishi

• nima uchun?


shaxs faoliyatining
samaradorligini oshirishi

• nima uchun?


shaxsiy faoliyat
samaradorligini
oshirishning asosiy
vazifalarini o'rganishi.

• nima uchun?

2-topshiriq. Shaxs faoliyatining samaradorligini oshirishning asosiy vazifalarini „Kungaboqar“ metodi yordamida ifodalab bering.



3-topshiriq. Talabalarning pedagogik diagnostika haqidagi bilimlarini tekshirish uchun aqliy hujum metodi.



7-amaliy mashg'ulot.

Mavzu: Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarini ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish.

Reja:

1. O'quvchi-qizlarni ijtimoiy faolligini oshirishni aniqlashtirishda anketalashtirish suhbat metodlari.
2. O'quvchi-qizlarni ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik kuzatish, sotsiometriya metodlaridan foydalanish yo'llari.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarini ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish yo'llarini o'rgatish. Ta'lim jarayonini diagnostika qilishning asosiy funksiyalari (teskari aloqa funksiyasi, maqsad va vazifalarni belgilash funksiyasi, taqsimot funksiyasi, yaratish va pedagogik tajribani o'rganish funksiyasi, pedagogik korreksiyalash funksiyasi, motivatsiya va rag'batlantirish funksiyasi, nazorat funksiyasi) haqida tushuncha hosil qilish.

Ta'lim metodlari: tushunchalar tahlili, nima uchun, aqliy hujum, savol-javob, ruchka stol o'rtasida.

Ta'lim vositalari: tayanch matn, markerlar, tarqatma materiallar, topshiriqlar.

Kutilayotgan natija: Sotsiometriya (lot. societas — jamiyat va ... metriya) — ijtimoiy psixologiya sohasi. Ijtimoiy turmushdagi

kichik guruh (jamo'a, oila) a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajalarini o'lchashda qo'llaniladi. Sotsiometriyaga amerikalik sotsiolog Ya. Moreno (1892—1974) asos solgan. Uning metodiga ko'ra, muayyan guruhdagi har xil xususiyatli shaxslarning o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun qaysi faoliyatda kim bilan birga qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlari guruhdagi kishilarning shaxslararo munosabatlari to'g'risida tasavvur hosil qiladi. Bu ma'lumotlar guruhiiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi, xolos. Hozirgi davrda Sotsiometriyaning modifikatsiyalari ishlab chiqilgan (Ya.L. Kolominskiy, I.P. Volkov). Sotsiometriyaning bu turi test savollari yordamida bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar haqida to'laroq axborot to'plash imkonini beradi.

Talabalar Sotsiometriyaning nazariy va amaliy natijalari mehnat jamoalarining ijtimoiy rivojlanishini boshqarishda, tarbiyaviy ishda va h.k.da keng qo'llanishi haqidagi ma'lumotga ega bo'lishadi.

Egallangan bilimlarni turli xildagi ta'lim metodlari orqali mustahkamlab olishadi.

1-topshiriq. Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarini ijtimoiy faolligini tushunchalar tahlili metodi orqali ifodalab bering.

TUSHUNCHALAR	TUSHUNCHALAR IZOHI
1.	A.
2.	B.
3.	C.

2-topshiriq. Umumta'lim maktablari o'quvchi-qizlarini ijtimoiy faolligini oshirish yo'llaridagi muammolarni nima uchun metodi orqali ifodalang.

Umumta'lim maktablari
o'quvchi-qizlarini ijtimoiy
faolligini oshirish yo'llaridagi
muammolar

III BOB. "TARBIYA DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI" FANIGA DOIR TEST VA GLOSSARIY

1-mavzuga oid testlar

1. "Tarbiya diagnostikasi va korreksiya" fanining maqsadi nima?

- *A) Psixologiya va pedagogikaga oid bilimlar berish
- B) Ruhiy va jismoniy jihatdan tarbiyalash
- C) Jismonan sog'lom qilib tarbiyalash
- D) Tarixiy bilimlar berish

2. "Tarbiya diagnostikasi va korreksiya" faniga kim asos solgan?

- *A) D. Fisher va R. Ress
- B) T. Stoun
- C) Abdulla Qodiriy
- D) K. Ingenkamp

3. "Diagnostika" atamasining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ifodalangan qatorni ko'rsating

*A) «dia» - «shaffof», «gnozip» - «bilim- o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy vositasi bo'lib xizmat qiladi;

B) "Dia" - "ta'lim", «gnozifi» - "tarbiya" - ta'lim-tarbiya jarayonini qulay tashkil etish;

C) "Shaffof ma'lumot beruvchi" metodika sifatida tushuniladi;

D) "Donishmandlar suxbati" ma'nosini bildirib, pedagogikada keng qo'llaniladigan metodni bildiradi.

4. Pedagogik diagnostika - bu....

*A) Pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini o'rganish, tahlil qilish, samaradorligini oshirish jarayonidir;

B) Shaxsning o'ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik xususiyatlari;

C) Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi xususiyatlari;

D) Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni tashkil qilish

5. Pedagogik korreksiyalash funksiyasi bu -...

*A) Ta'limiy va tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish vazifasini o'taydi;

B) Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarni attestatsiyalashda qo'l keladi;

C) Jismoniy nuqsonlarni bartaraf etadi;

D) Tahsil oluvchilar o'rtasida "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini tashkil qiladi.

6. Qanday bolalarga anomal bolalar deyiladi?

*A)Ruhiiy va jismoniy kamchiligi bor bolalarga

B)Ruhiiy kamchiligi bo'lgan bolalarga

C)Juda aqlli bolalarga

D)Boquvchisini yo'qotgan bolalarga

7. Pedagogik diagnostika atamasi ilk bor qachon va kim tomonidan qo'llanilgan

*A)1968-yilK.Ingenkamp

B) 1968-yil T.Stoun

C)1925-yil T.Stoun

D)1908-yil Ingenkamp

8. Tajribalar pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa natija qanday bo'ladi?

*A)haqqoniy B)ijobiy

C)salbiy D) B va C javoblar

9. "Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi"faniga qachon asos solingan?

*A)1864 B)1908

C)1925 D)1906

10. Kamol topib borishda ma'lum bir nuqsonlari bor bolalarning xatti harakatidagi o'ziga xos xususiyatlarini anglash ularning kamchiliklari va qiyinchiliklarini tuzatishning samarali usullarini topish bilan qaysi fan shug'ullanadi?

*A)pedagogik korreksiya B)pedagogik diagnostika

C)psixologiya D)pedagogika va psixologiya

2-mavzuga oid testlar

1. Diagnostika so'zi qaysi tildan olingan?

A) *Yunoncha

B) Inglizcha

C) Fransuzcha

D) Ruscha

2. Ta'limda pedagogik diagnostika ta'lim – tarbiya faoliyatida uning va.....aniqlab beruvchi amaliyot hisoblanadi.

- A) *Sifat va samaradorligini
- B) Turlari va bosqichlarini
- C) Tushuncha va tamoyillarini
- D) Tuzatish va o'zgartirishni

3. Har tomonlama va kompleks asosda baholash o'zining bir qancha aspektlariga ega bular quyidagilar?

- A) *Qadriyatli yo'naltirilgan, doimiy korreksiyalovchi, o'lchab beruvchi
- B) Doimiy korreksiyalovchi baholovchi
- C) O'lchab beruvchi, tahlil qiluvchi
- D) Diagnostikalovchi o'lchovchi

4. Qaysi baholash orqali inson o'zining aqliy va axloqiy estetik qarashlarini ijobiy tomonga o'zgartirib boradi?

- A) * qadriyatli yo'naltiruvchi
- B) o'lchab beruvchi
- C) rag'batlantiruvchi
- d) korreksiyalovchi

5. Pedagogik diagnostikada ilmiy tadqiqot metodlarini qo'llashda nechta shartlarga amal qilinadi?

- A) *7 B)8ta C)3ta D)5ta

6. Qaysi metod o'quvchining o'qish talabini bilimga qiziqishini, mas'uliyatini aniqlaydi?

- A) * kuzatuv metodi
- B) so'roqlash metod
- C) tahrirlash metodi
- D) anketa so'rovnoma metodi

7. Pedagogik kuzatuv metodi orqali to'plangan dalillar qaysi metod orqali boyitiladi?

- A) *anketa metodi
- B)tahrirlash metodi
- C) Intervyu metodi
- D) Hujjatlarni tahlil qilish metodi

8. Yopiq turdagi savollar qaysi metodda beriladi?

- A) *Anketa metodi
- B) So'roqlash metodi

C) Kuzatuv metodi

D) Suhbat metodi

9 Pedagogik konsiliumning rahbari kimlar bo'lishi mumkin?

A) *Ta'lim muassa yoki tashkilot rahbarlari

B) Ota-onalar

C) To'garak rahbarlari

D) Tadqiqot o'tkazuvchi

10 Konsilium so'zining ma'nosini toping?

A) *Lotincha kengashish, maslahatlashish

B) Yunoncha to'g'rilayman, bajaraman

C) Inglizcha kengashish

D) Ruscha tajriba

3-mavzuga oid testlar

1. "Metod" so'zining lug'aviy ma'nosi-bu...

*A) lotincha "metodos"- "yo'l", "uslub"

B) vazifa, faraz

C) qo'llanma

D) yo'riqnoma

2. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda nimani anglatadi?

*A) muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, malum maqsadga erishish yo'lini

B) tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilishni

C) qandaydir vazifani hal etishni

D) ta'lim -tarbiya jarayoniga taalluqli muhim faktlarni

3. Pedagogika fani o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida qanday metodlardan foydalanadi?

*A) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi

B) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni kuzatish orqali o'rganadi

C) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni suhbat asosida o'rganadi

D) mavjud pedagogik xodisa va jaray onlarni tajriba asosida o'rganadi

4. Hozirgi kunda pedagogikaning qaysi ilmiy - tadqiqot metodlari yetakchi xisoblanadi?

*A) Pedagogik kuzatish va so'rash metodlari;

B) Test sinovlari va ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodlari;

C) Tajriba - sinov metodlari;

D) Matematika - statistika metodlari;

E) Barcha javoblar to'g'ri

5. So'rashning modifikatsiyalashtirilgan shakli - bu...

*A) Intervyu B) Monolog

C) Dialog D) suhbat

6. Suhbat metodi - bu...

*A) Dialog, diskussiya tarzida o'tkazilib, insoniy munosabatlar, ularning istiqboldagi rejalari, qarashlari va xususiy fikrlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan metod

B) An'naviy pedagogik metod

C) Pedagogik jarayonni kuzatish uchun zarur bo'lgan metod

D) Suhbatdoshning ichki olamini o'rganish uchun axborot-texnologiyalari orqali unga ta'sir o'tkazish metodi

7. Pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot metodi — bu...

*A) Tajriba -sinov metodi

B) Kuzatish metodi

C) Suhbat metodi

D) Modellashtirish metodi

8. Pedagogikada ijtimoiy fikrni o'rganish (so'rovnoma, intervyu, test) metodining vazifasi - ...

*A) Biror muammo tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidir. Bu metod orqali o'rganilayotgan muammoning yechimini topish yo'llari belgilanadi.

B) Ta'lim-tarbiya jarayoni to'g'risida muayyan xulosaga kelish uchun foydalanuvchi metod. Bu metod ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi.

C) Uzoq muddatli jarayonlarni tekshiradi

D) Ko'p xususiyatli jarayonlar, o'zaro munosabatlarni tadqiq qiladi

9. Ilmiy tadqiqot natijasida jamlangan axborotga kompyuter texnologiyalari yordamida ishlov berish, statistika ma'lumotlarini jamlash, tahlil qilish, qiyoslash umumlashtirishda qo'llaniladigan metod-bu...

- *A) Matematika va statistika metodi
- B) Qiyoslash
- C) So'rovnoma
- D) Kuzatish

10. Qaysi metod ta'lim -tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi?

- *A) Pedagogik kuzatish
- B) Matematik-statistika
- C) Interpretatsiya
- D) Modellash

11. Modellash- bu...

*A) bilish ob'ektlarini o'z tushunchalari asosida tadqiq etish, jarayon va hodisalarning xususiyatlarini o'rganish maqsadida modellar orqali o'rganish

- B) Tajriba asosida qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rganish
- C) Ta'lim-tarbiya jarayonida qaror qabul qilish texnologiyalarini ishlab chiqishga mo'ljallangan metod
- D) Ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida ekstemat to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqishga mo'ljallangan metod

12. Pedagogikada oddiy kuzatish nima?

- *A) pedagogik jarayonni tahlil qilish
- B) tarbiya natijasini umumlashtirish
- C) ta'limning kafolatlangan natijasiga erishish
- D) hayotiy voqea-hodisalarni tahlil qilish bilan cheklanish
- E) o'qituvchining faoliyatini o'rganish

4-mavzuga oid testlar

1. Ta'lim metodi – bu?

*a) o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish,

bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli.

b) O'quvchilarda siyosiy onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilishni tarbiyalashga qaratilgan topshiriqlardan unumli foydalanish samarali natijalarni beradi.

d) Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati o'zaro ta'sir ko'rsatish uslublariga bog'liq ekanligi shak-shubhasizdir

2. Metod -

* a) (grekcha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, yo'l, ahloq usuli ma'nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli.

b) Qo'llanilgan muayyan yangi korreksion yo'nalishning samaradorligini tekshirish uchun muayyan guruhlarini tanlab olish maqsadga muvofiq

d) Pedagogik korreksiya maxsus tarbiyaviy faoliyat tizimi

3. Pedagogik korreksiya-

* a) Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash va shug'ullanish.

b) bolalarni savodga o'rgatish

d) bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish va ijodkorlikka orgatish.

4. Biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi -bu

* a) Metodika

b) Korreksiya

d) Interfol korreksiya

5. Interfaol metodlar deganda -

* a) Ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi.

b) O'quvchilarning tasodifiy hollar, ko'chadagilarning bema'ni ta'siri, kattalarning yaramas hatti-harakatlari ta'sirida tarkib topadigan axloqiy tushunchalar

d) Ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;

6. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlarini to'g'ri berilgan qatorni belgilang.

*a) ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish; ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi; ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi; ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o'rganilishi; ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

b) ongli, fikr-mulohazali inson- o'z hohish-istaklanni jilovlay oladigan, o'z xatti-harakatlarini ma'naviy-ma'rifiy maqsadga yo'naltirgan, qonunga xilof ish qilmaydigan fuqaro hisoblanadi.

d) Irodasiz, kuchsiz xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'p hollarda o'zgalar xohish-istagini bajaruvchilariga aylanib qolishadi.

7. Metodlarni necha guruhga tasniflash mumkin.

*a) Interfaol metodlar, Interfaol ta'lim strategiyalari, Interfaol grafik organayzerlar

b) korreksion metodlar, guruhli ishlash usullari

d) Interfaol grafik organayzerlar, individual ishlovchi metodlar

8. Interfaol metodlar-

*a) "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim"

b) "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor"

d) "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?"

9. Interfaol ta'lim strategiyalari -

*a) "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor"

b) "Baliq skeleti", "BBB", "Konsteptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?"

d) "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim"

10. Interfaol grafik organayzerlar -

*a) "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?"

b) "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blist-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim"

d) "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorlar", "Rotastiya", "Yumaloqlangan qor"

5-mavzuga oid testlar

1. Neyrolingivistik dasturlash kimlar tomonidan ishlab chiqilgan ?

*A. Bendler, Erikson B. K. Marks

C. Leven D. Enshtyen

2. Maqsadnibelgilashtexnikasi bu?

*A. Smart B. Qayta ramkalash

C. Langar D. Korreksiya

3. Faoliyatning texnologiyasi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

*A. Ehtiyoj-motiv-maqsad-reja-usul-harakat-natija-xulosa

B. Motiv-ehtiyoj

C. Maqsad-reja

D. Usul-harakat

4. Borlikka nisbatan faol munosabatning shakli bu

*A. Faoliyat B. Korreksiya

C. Neyrolingivistika D. Faza

5.insonga kerakli natijaga erishish uchun o'z psixikasini(o'zini) tartibga solishga yordam beradigan muayyan dasturlar va harakat usullari mavjudligini ko'rsatadi.

*A. Dasturlash B. Lingivistika

C. Korreksiya D. Neyrolingivistika

6. og'zaki funktsiyalarning muhimligini ta'kidlaydi: til orqali biz harakatlarimiz va fikrlarimizni tartibga solishga, tartibga solishga, shuningdek, atrofimizdagi odamlar bilan muloqot qilishga muvaffaq bo'lamiz.

*A. Lingivistika B. Dasturlash

C. Korreksiya D. Neyrolingivistika

7. Neyrolingivistik tamoyillarini belgilang

*A. Muvofiqlik, ochiqlik B. Lingivistik

C.Dasturlilik D.Korreksiyalilik

8."O'rgimchakning ishi to'quvchining ishini eslatadi, asalari ham mumdan uya yasab, ba'zi kishilarni-me'morlarni uyatga qoldiradi. Lekin eng yomon me'mor ham eng yaxshi asalaridan avval oshu bilan farq qiladiki, umumdan uya yasashdan oldin, bu yani miyasida ko'radi" bu fikr kimga tegishli?

*A.K Marks B.Leven

C.Bedler D.Erikson

9.Maqsadnibelgilashtexnikasibu?

*A.Smart B.Qaytaramkalash

C.Langar D.Korreksiya

10.Dasturlashni nechta qoidasi mavjud?

*A.5 B.4 C.2 D.8

6-mavzuga oid testlar

1. Sotsiometriya- bu...

*A) nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash uchun qo'llaniladigan metod

B) pedagogika faniga ijtimoiy psixoliya sohasi orqali kirib kelgan tushuncha bo'lib, kichik ijtimoiy guruhlarining tarkibi hamda ijtimoiylashuvi vazifalarini miqdoriy metodlar orqali o'rganadi.

C) "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarining o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun qo'llaniladigan metod

D) Test sinovlari va ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi

2. Suhbat metodi - bu...

*A) Dialog, diskussiya tarzida o'tkazilib, insoniy munosabatlar, ularning istiqboldagi rejalari, qarashlari va xususiy fikrlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan metod

B) An'anaviy pedagogik metod

C) Pedagogik jarayonni kuzatish uchun zarur bo'lgan metod

D) Suhbatdoshning ichki olamini o'rganish uchun axborot-texnologiyalari orqali unga ta'sir o'tkazish metodi

3. "Diagnostika" atamasining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ifodalangan qatorni ko'rsating

*A) «dia» - «shaffof», «gnozip>y-«bilim- o'rganilayotgan ob'ekt yoki jarayon to'g'risida aniq ma'lumot olishning umumiy

vositasi bo'lib xizmat qiladi;

B) "Dia"- "ta'lim", «gnozifi " - "tarbiya" - ta'lim-tarbiya jarayonini qulay tashkil etish;

C) "Shaffof ma'lumot beruvchi" metodika sifatida tushuniladi;

D) "Donishmandlar suxbati" ma'nosini bildirib, pedagogikada keng qo'llaniladigan metodni bildiradi.

4.. Pedagogik diagnostika- bu....

*A) Pedagog shaxsining va u bilan muloqotga kirishuvchilarning pedagogik tizim natijalarini o'rganish, tahlil qilish, samaradorligini oshirish jarayoni dir;

B) SHaxsning o'ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik xususiyatlari;

C) Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi xususiyatlari;

D) Ta'lim tizimida innovatsion jarayonlarni tashkil qilish

5. Pedagogik korreksiyalash funksiyasi bu -...

*A) Ta'limiy va tarbiyaviy jarayondagi nuqsonlarni bartaraf etish vazifasini o'taydi;

B) Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarni attestatsiyalashda qo'llaniladi;

C) Jismoniy nuqsonlarni bartaraf etadi;

D) Tahsil oluvchilar o'rtasida "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini tashkil qiladi.

6. Pedagogika fani o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida qanday metodlardan foydalanadi?

*A) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi

B) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni kuzatish orqali o'rganadi

S) mavjud pedagogik xodisa va jarayonlarni suhbat asosida o'rganadi

D) mavjud pedagogik xodisa va jaray onlarni tajriba asosida o'rganadi

7. Ilmiy tushuncha sifatida "metod" so'zi keng ma'noda nimani anglatadi?

*A) muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan uslubni, malum maqsadga erishish yo'lini

B) tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilishni

C) qandaydir vazifani hal etishni

D) ta'lim -tarbiya jarayoniga taalluqli muhim faktlarni

8. Qaysi metod ta'lim -tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilantanishtiradi, ularning oqibat natijalarini bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar yig'ish imkonini beradi?

*A) Pedagogik kuzatish

B) Suhbat

C) Sotsiometrik

D) Anketa.

9. Pedagogik diagnostika» atamasi kim tomonidan va qachon fanga kiritildi?

*A) 1968 yil Karlxayns Inkenkamp tomonidan

B) 1978 yil J.J. Russo tomonidan

C) 1900 yil Edvard Tomdayk tomonidan

D) 1968 yili T.Kelle tomonidan

10. O'quv muassasalarida tahsil oluvchilarning intellektuallik darajasi qaysi yo'nalishlar bo'yicha farqlanadi va hisobga olinadi?

*A) Jismoniy kamolotga erishganligi, intellektual qobiliyati, mehnatga munosabati, ijtimoiy munosabatga kirisha olish;

B) Vazifani bajarishga tayyorgarligi, diqqat va chidamni boshqara olishi;

C) tarbiyalanganligi, hissiy mustaqilligi, guruh bilan kirishimlili;

D) miqdor va ko'plikni tushunishning darajasi, xotiraning rivojlanish darajasi

GLOSSARIY

Aqliy rivojlanish – shaxs fikrlash qobiliyati, tafakkurining rivojlanishi, intellektual salohiyati darajasining oshishi

Axloqiy ong – shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.

Axloqiy tarbiya – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Bilim - bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyat hayoti davomida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyoni chuqurroq anglashga, hamda o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi

ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan majmuidir.

Diagnostika (tashxislash; yun. "diagnostikos" – "aniqlashga qodirlik", "aniqlashga imkon berish") – tegishli sohalarda mavjud muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash, nuqson va muammolarni bartaraf qilish yo'li, usul va tamoyillarini o'rganish.

Fan– yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'orpedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi.

Guruh – tarbiyalanuvchilarning yosh, psixologik xususiyatiga ko'ra shakllantirilgan yoki o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari ta'lim oluvchilarining akademik jamoasi

Hamkorlik – tarbiyalovchi vaziyatning o'zaro harakati bo'lib, unga ko'ra sub'ektlardan biri ikkinchisining ruhiy-jismoniy holatini to'la xis etadi va voqelikka, masalaga nisbatan o'zining salbiy munosabatini o'zgartirgan holda, vaziyatning rivojlanishi va ijobiy tus olishiga sabab bo'lishi mumkin. Hamkorlik asosida sherigi bilan o'zaro harakat qilish, kayfiyati qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning osoyishtaligi haqida qayg'urish yotadi.

Intellekt - insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati, tushunish, mulohaza, tafakkur, aql ma'nosini anglatadi.

Inklyuziv ta'lim (ing. "inclusion" – o'z ichiga olish, kiritish, uyg'unlashtirish) davlat siyosati bo'lib, nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli (tarbiyasi og'ir, yetim bolalar, turli hil kasalliklarga chalingan ijtimoiy himoyaga muhtoj mayda millat bolalari) maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birga umumta'lim muassasalarida o'qitish va tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Interfaol –so'zi inglizcha so'z bo'lib, "inter" – o'zaro va "act" - harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol – ya'ni o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi.

Innovatsion faoliyat - yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

Interfaol usul - bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlikdagi ta'lim usuli bo'lib, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi bir-birini to'liq tushunishga erishiladi.

Integratsiya – o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish.

Korreksiya (yun. "correctio" – tuzatish; pedagogikada – pedagogik tuzatish) – pedagogik uslub, tibbiy choralardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik, jismoniy rivojlanish kamchiliklarining qisman yoki to'liq tuzatilishi.

Konvergent tafakkur - (lotincha convergere- "bir yo'ldan") tafakkur formasi bo'lib, muammoning bir qancha yechimlaridan faqat yagona to'g'risini tanlashdir. Konvergent tafakkur asosida intellekt yotadi, shuning uchun intellektual tafakkur deb ham ataladi.

Kreativlik – bu yangi, original g'oyalarni yaratish, fikrlashning nostandart shakli, berilgan muammolarga omadli yechimlar topishdir.

Ko'nikma - u yoki bu ishni bajarishning avtomatlashgan usuli bo'lib, ongli ishning bajarilishini nazorat qilishdan ozod qiladi va uni ishda qo'yilgan maqsadga qaratadi.

Ko'rsatkich (lot. "indicator" – ko'rsatkich) – aniq ob'ektda namoyon bo'ladigan qandaydir o'lchov birligi yoki o'zgarish sifati (mezon). Mezon, uning miqdoriy va sifat tavsifi bo'yicha ob'ektning turli holatlarini muhokama qilishga imkon beradigan o'lchov, chegara. Ko'rsatkich, odatda, o'lchanadigan mezonning tashqi jihatdan juda yaxshi farqlashga imkon beradi.

Ma'naviyat (arabcha «ma'naviyat» - ma'nolar majmui) – mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'lumot - kishi sezgi a'zolari, asboblari va boshqalar yordamida qayd etiladigan, tashqi olamdan olingan belgilar to'plamidir.

Metod (qad. yun. "μέθοδος" – yo'l, usul; yun. "methodos" – tadqiqot yo'li, usuli) – muayyan maqsadga erishish uchun ma'lum yo'lni, tartib yoki tizimga solingan faoliyat usulini tanlash; ta'lim (tarbiya) maqsadiga erishishning yo'li, usuli; doimiy ravishda rivojlanib va shakllan o'zgarib boradigan usul yoki uslublar, usullar va qadamlar, harakatlar. Mazkur tushuncha turlicha talqin qilinadi.

Jumladan, 1) faoliyat usuli; 2) qandaydir faoliyat usullarining majmui; 3) harakat usuli yoki ko'rinishi; 4) harakat tizimi; 5) ta'sir ko'rsatish yo'li; 6) maqsadga erishish uchun tashkil etilayotgan harakat.

Nazorat (ta'lim jarayonida) – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayoni.

Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas'ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlamma yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Oilaviy munosabatlar – ota-onalar (yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlar.

"Pedagogik diagnostika va korreksiya" – maqsadi pedagogik ahamiyatga ega ma'lumotlarni aniqlash va ulardan foydalanish asosida o'quvchi shaxsini har tomonlamma rivojlantirish, tarbiyalash, o'quv hamda kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan samarali tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat o'quv fani.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o'quvchi amal qilishi zarur bo'lgan

ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Pedagogik texnologiya – ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, yetaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogik diagnostika (yunoncha – “bilish”, “aniqlash” ma'nosini anglatadi) - bu muayyan bosqichlarda bolaning individual xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkoniyatini beradigan mexanizm.

Pedagogik kreativlik - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy xal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

Pedagogik muloqot - pedagogik jarayonda ishtirok etuvchilar o'rtasida amalga oshiriladigan murakkab o'zaro tavsiya jarayoni. Bu muloqot jarayonida ishtirokchilarni hamkorlikda ishlashi, bir-birlariga yordam berishi, harakatlarni o'zaro muvofiqligiga erishish kabilar samarali natijalar beradi.

Psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, bolalar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

Rag'batlantirish - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usuli.

Reaksiya - materialga nisbatan qanday operatsiyani qo'llash natijasi.

Refleksiya (lot. “reflexio” - ortga qaytish, aks etish) kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, faxmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati, bilishning alohida faoliyati, shaxsiy

kechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash, o'z-o'zini tahlil qilishi.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Sinf – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilar guruhi.

Suhbat – savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi.

Ta'lim vositalari – ta'lim samaradorligini ta'minlovchi ob'yektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va sub'yektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar.

Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim konsepsiyalari (lotin tilidan «conceptio» –tizim) – ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tashhis –didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

Ta'lim – tarbiyalanuvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

"Texnologiya" so'zi ("texnos" - xunar va "logos" - fan) hunar, san'at fani ma'nosini anglatadi.

"Texnika" (hunar san'at-grekcha) - usul va vosita elementlarning yig'indisi, uning tarkibi - muloqot va munosabatdan iborat.

Uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

O'lchash – qandaydir belgining ahamiyati, qiymatini aniqlash jarayoni.

O'qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O'z-o'zini rivojlantirish – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Asosiy adabiyotlar

1. G'ulomov J.R., Umarova M.H., G'ulomova N.B. Pedagogik diagnostika va korreksiya T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018 y., 128 b.
2. Подласий И.П., Педагогика: в 3-х кн – Москва: ВЛАДЦОС, 2013.
3. Talipova J.O., Pedagogik kvalimetriya / o'quv qo'llanma – Toshkent 2016. 117 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – T.: "O'zbekiston", 2017. – 227-b.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". – T.: "O'zbekiston", 2016. – 14-b.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent 2017, 45-bet.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Gidrofiliya – Zebra / 3-tom. Tahrir hay'ati: M. Aminovva b. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 283-b
8. Pedagogika. Izohli lug'at / O'.Asqarova, M.Usmonboeva, X.Raxmatova, F.Ehsonova, F.Asqarova. – Namangan: NamDU, 2014. – 14, 192-b.
9. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi / Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahr. ostida. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 102-114-b.
10. Аллан Пиз. Язык телодвижений или как читать мысли других людей по их жестам. – М.: "Ай-ко", 1995. -25 стр.
11. Голиш Л.В Саидова Д.Т Тренинг – форма оперативного повышения.

Axborot manbalari

12. www.tdpu.uz
13. www.Pedagog.uz
14. www.ziyonet.uz
15. www.edu.uz

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. "TARBIYA DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI" FANINING NAZARIY ASOSLARI	
1 "Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi" fanining obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Tarbiyaviy diagnostika va korreksiya pedagogikaning ilmiy va amaliy sohasi sifatida..	4
2 Pedagogik tarbiyaviy diagnostika uning asosiy funksiyalari turlari va metodlari.....	13
3 Pedagogik diagnostikada o'quvchilar yosh xususiyatlarining o'ziga xosliklari.....	24
4 Tarbiyaviy korreksiyaning umumpedagogik va maxsus tamoyillari.....	30
5 Pedagogik korreksiya metodlari. Pedagogik korreksiyaning guruhli va individual tarzda tashkil etish.....	38
6 Pedagogik korreksiyada neyrolingivistik dasturlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish. Shaxs faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi: fazalar, bosqichlari	46
7 Pedagogik diagnostika va korreksiyaning samarali tashkil etish va umumta'lim maktablari o'quvchi -qizlarini ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish.....	57
II BOB. "TARBIYA DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI" FANIDAN AMALIY MASHG'ULOT ISHLANMALARI	
1 Tarbiya diagnostikasi va korreksiyasi fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari.....	65
2 Pedagogik diagnostika metodlari.....	66
3 Pedagogik diagnostika o'quvchilar yosh xususiyatlari.....	68
4 Pedagogik korreksiyaning maqsadi, vazifalari. Tamoyillari va metodlari.....	70
5 Pedagogik korreksiyaning tashkil etish shakllari va neyrolingivistik dasturlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish.....	72
6 Shaxs faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik diagnostika va korreksiyaning tashkil etish texnologiyasi.....	74

7 Umumta'lim maktablari o'quvchi- qizlarini ijtimoiy faolligini oshirishda pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanish.....	77
--	----

III BOB. "TARBIYA DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI" FANIDAN TEST VA GLOSSARIY

1 Mavzularga doir testlar.....	79
2 Glossariy.....	91
Asosiy adabiyotlar.....	97



Quchqorova Nargiza Mamajonovna,
Siddikov Xasan Taxirovich

TARBIYA DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI

Darslik



“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 22.07.2022.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 6,2. Shartli bosma taboq 5,9.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

📞 t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10



Quchqorova Nargiza Mamajonovna 1979-yil Farg'ona viloyatida tug'ilgan, millati o'zbek, oilali, 3 nafar farzandi bor.

Quchqorova Nargiza Mamajonovna 2020-yil 11-avgustda Nukus davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.34.01 raqamli ilmiy kengashda 13.00.01 –

Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Kompleks yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish" mavzusida pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Ilmiy faoliyati davomida 42 ta ilmiy va uslubiy maqolalari nashr etilgan bo'lib, ulardan 8 tasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro'yxatidagi jurnallarda, 8 ta xorijiy jurnallarda, 1 ta SCOPUS, 20 ta xorijiy va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida chop etilgan. Bundan tashqari 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, 3 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalari nashr etilgan.

N.M. Quchqorova 2021-yil O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan bajarilishi rejalashtirilgan JHBL-61 "Harbiy oila farzandlarining ijtimoiylashuvini kompleks tadqiq etish" mavzusidagi qisqa muddatli ilmiy-tadqiqot loyiha rahbari sifatida faoliyat olib borgan.

Quchqorova Nargiza Mamajonovna faoliyati davomida ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va universitet ilmiy salohiyatini oshirish ishlariga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.



Siddiqov Xasan Taxirovich 1989-yil Xorazm viloyatida tug'ilgan, millati o'zbek, oilali, 3 nafar farzandi bor.

Siddiqov Xasan Taxirovich 2018-yil 2-apreldan Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti dekanining Yoshlar bilan ishlash bo'yicha o'rinbosari bo'lib ishlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish

qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli qaroriga asosan "Ma'naviyat targ'ibotchisi" o'quvini, 2021-yil Davlat boshqaruv akademiyasi Urganch filialida "Boshqaruv mahorati va zamonaviy boshqaruv" kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan.

Ilmiy faoliyati davomida 12 ta ilmiy va uslubiy maqolalari nashr etilgan bo'lib, ulardan 2 tasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro'yxatidagi jurnallarda, 6 tasi xorijiy jurnallarda va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida chop etilgan.

Xasan Siddikov "13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi" ixtisosligi bo'yicha p.f.d. professor B.X.Xodjaev rahbarligida "Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning pedagogik-profilaktik tizimini takomillashtirish" mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishini olib bormoqda.

Siddikov Xasan Taxirovich kelgusida o'z faoliyatini kuchaytirib, ilmiy ishini muvaffaqiyatli yakunlab, universitet ilmiy salohiyatiga munosib hissasini qo'shadi.

ISBN 978-9943-8209-3-7

